

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VA SPORT ISHLARI VAZIRLIGI
ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT MADANIYAT INSTITUTI
“KASBIY PEDAGOGIK TA‘LIM” FAKULTETI
“PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA” KAFEDRASI

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

“BAHOLASH TIZIMI – O‘QUVCHILARNI INTELLEKTUAL
RAG‘BATLANTIRUVCHI OMIL SIFATIDA”

Bajardi: 5140900 “Kasbiy ta’limi “ yo‘nalishi
bitiruvchisi F. OBLAQULOVA
Ilmiy rahbar: p.f.n.dotsent Fozilov J.K.
Kafedra mudiri: p.f.n. dotsent Qosimova Z.H.

Mazkur bitiruv malakaviy ishi kafedraning 2012 yil ”2305” dagi “10” sonli yig‘ilishida
muhokamadan o‘tib himoyaga tavsiya etilgan.

Toshkent 2012

Mavzu: Baholash tizimi – o'quvchilarni intellektual rivojlantirishda rag'batlantiruvchi omil sifatida.

Reja:

Kirish

I- Bob. O'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalarini sinovdan o'tkazish va baholash mezonlari.

1.1. Ta'lim tizimida o'quvchilarni bilimini o'zlashtirishini baholash jarayoni.

1.2. Reyting tizimi va uning samaradorligi.

II - bob. Kichik maktab yoshida bahoga munosabat shakllanishining psixologik xususiyatlarini eksperimental tadqiq etish.

2.1. Tadqiqot natijalari tahlili.

2.2. Kichik maktab yoshida bilim olish va bahoga intilish motivlarining o'zaro munosabati.

Xulosa.

Adabiyotlar ro'yxati.

Ilovalar.

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Yoshlarni mustaqil bilim olishga o'rgatish bugungi kunning eng muhim va dolzarb vazifalaridan biridir. O'quvchilarning bilimini aqliy kamolotlarini nazorat qilish va baholash davlat miqiyosida muhim ahamiyatga egadir. Shu bilan birga nazorat va baholash jarayoni o'quvchi shaxsini rivojlantirishga va tarbiyasiga ta'sir ko'rsatadi.

Bilimlarni nazorat qilishda qo'yilgan ball va baholar o'quvchi qanday taassurotlar qoldirganini, ular o'rtoqlarining o'qishdagi yutuq va kamchiliklariga qanday munosabatda bo'lishlarini doim kuzatib borishlari lozim. O'quvchilarning intellektual imkoniyatlarini royobga chiqarish ularning bilim faoliyatining psixologik-pedagogik qonuniyatlarini chuqur bilishni taqazo etadi.

Ko'pchilik mutaxassis olimlar o'quvchilarni baholash salbiy oqibatlarga olib keladi, deb hisoblashmoqdalar. Ma'lumki, faqat baho uchun o'qish bilimning ijtimoiy ahamiyatini pasaytirishi mumkin. Shunga ko'ra bilimni tekshirishning boshqa usullarini topish hamda qo'llash hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'quvchilar bilimini baholashdagi holat olimlarimizni befarq qoldirmadi. Bu jarayonni bir qancha olimlarimiz o'rganib tahlil qilib tadqiqot olib borganlar. Shu jumladan, psixolog va pedagog olimlarimiz I.Tursunov, U.Nishonaliev, M.V.Matyuxina, P.YA.Galperin, N.F.Talizina tomonidan o'rganib chiqilgan.

Tadqiqot ishining maqsadi. O'quvchilarni baholash orqali intellektual rivojlantirish omillari ekanligini ilmiy nazariy jihatdan asoslash.

Tadqiqot obyekti. X.T.B tasarrufidagi Profilli mehnat ta'limiga ixtisoslashtirilgan 190-umumta'lim maktabi. (Nima uchun yaxshi baho olishni istaysan? va baho qo'yilmasligini istarmiding?) - degan savollar berildi.

Tadqiqot predmeti. O'quvchilarning o'qish motivlari hamda qo'llaniladigan metodlar.

Tadqiqot ishining metodlari. Savol-javob, diktant, test, aqliy hujum, yozma ish, guruhlarda ishlash, ko'zatish, suhbat.

Tadqiqot ishining metodologik manbalari. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun va “Kadrlar tayorlash milliy dastiri”, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 13-maydagi “O‘rta-maxsus, kasb-hunar ta’limini tashkil etish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi 204-sonli Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2010 yil 25 avgustdagi 333-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to‘g‘risida”gi nizom.

.Tadqiqot ishining ilmiy yangiligi. O‘quvchilarining bilimlari sifatini nazorat qilishning 5 ballik yangi reyting tizimi ta’lim jarayoniga joriy etilganligi.

Tadqiqot ishining amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalaridan maktab o‘qituvchilari foydalanishlari mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishi, kirish, 2 bob, 4 band, xulosa, tavsiyalar, ilova, tayanch ibora, adabiyotlar ro‘yxati va mundarijadan tashkil topgan. Bitiruv malakaviy ishning asosiy mazmuni 64 bet hajmda. Umumiy hajm 75 bet.

Yoshlarni mustaqil bilim olishga o‘rgatish bugungi kunning eng muhim va dolzarb vazifalaridan biridir. Shuning uchun ham Prezidentimiz I.A.Karimov O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX sessiyasida so‘zlagan nutqida “Faqatgina chinakkam ma’rifatli odam inson qadrini, millat qadrini, bir so‘z bilan aytganda o‘zligini anglash, erkin va ozod jamiyatda yashash mustaqil jamiyatimizning jahon hamjamiyatida o‘ziga munosib, obro‘li o‘rin uchun fidokorlik bilan kurashishi mumkin”¹ degan edi. Shu o‘rinda ta’kidlamoq lozimki bugungi kunda yoshlarni ma’naviy-intellektual rag‘batlantirishning ahamiyati kattadir.

O‘quvchilarning bilimini aqliy kamolotlarini nazorat qilish va baholash davlat miqiyosida muhim ahamiyatga egadir. Shu bilan birga nazorat va baholash jarayoni o‘quvchi shaxsini rivojlantirishga va tarbiyasiga ta’sir ko‘rsatadi.

¹Barkamol avlod O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori.-T: “Sharq”, 1998. 5-b.

Bilimlarni nazorat qilishda qo'yilgan ball va baholar o'quvchi qanday taassurotlar qoldirganini, ular o'rtoqlarining o'qishdagi yutuq va kamchiliklariga qanday munosabatda bo'lishlarini doim kuzatib borishlari lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning "O'zbekiston kelajagi buyuk davlat" va "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li", "Istiqlol va ma'naviyat" kabi asarlaridan mustaqil O'zbekistonning ma'naviy hayotining kelajagi asosiy ishlari belgilab berilgan. Jumladan, mutaxassislar tayyorlashda ularning intellektual rivojlantirish zarurligini alohida qayd qilingandi.

Yoshlarni tarbiyalash jarayoni ma'naviy-intellektual rivojlanish sifatlarini aniqlashning aniq maqsadi va vazifalari ishlab chiqilgan.

Boshlang'ich sinfdan boshlab o'quvchidagi bor imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga asos solinadi. O'quvchilar tafakkurining rivojlantirishning eng samarali yo'li o'quvchilarda ongli bilim, mustahkam ko'nikma va malakalarini shakllantirish jarayonini ularning tarbiyasi bilan birga tashkil etishdir. Buning uchun o'qituvchi tinimsiz izlanishi, o'qitishning yangi texnologiyalaridan samarali foydalanishi lozim.

O'quvchilarning intellektual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish ularning bilim faoliyatining psixologik-pedagogik qonuniyatlarini chuqur bilishni taqoza etadi.

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi asosida ishlab chiqilgan davlat ta'lim standartlarida ta'limning har bir bosqichida o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning minimal darajasi belgilab berilgan. Lekin bu bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish jarayoni bolaning intellektual imkoniyatlarini hisobga olib tashkil etilsa yuqori samaradorlik ta'minlanadi.

Ma'naviy-intellektual shakllanish sifatlarini zamonaviy uslublarda aniqlash tarbiya jarayoniga samarali o'zgartirishlar kiritadi. O'quvchi yoshlarning ma'naviy-intellektual shakllanish sifatlardagi yutuq va kamchiliklarini rag'batlantirish, tuzatish tarbiya mazmuni usullari va tashkiliy shakllarini yaxshilashga mos tuzatishlar kiritish lozim bo'ladi.

Qo'yilayotgan talablar bilan har tomonlama intellektual rivojlantirishning mutassal emasligi orasida tafovut yaratadi. Ayniqsa, mutaxassis tayyorlashda maktabdan boshlab oliy o'quv yurtlarini bitirib chiqqanlarigacha nazorat shaklining

to'liq bo'lmaganligi ta'lim tarbiya jarayoninig asosiy muammolarini tashkil etadi. Masalaning muhim tomoni shundaki, mutaxassislar ommaviy tusda tayyorlanganda tarbiyachilarning har bir o'quvchi bilan yetarli darajada yakkama-yakka muloqot qilishga vaqt yetmaydi. Muloqot tezkor savol-javob tarzida o'tsa, tabiatan bunday muloqot o'quvchini ham o'qituvchini ham qanoatlantirmaydi. O'quvchilar bilimini nazorat qilish va baholash o'quv yili davomida har doim muntazam amalga oshirilishi uchun reyting tizimi joriy qilinib, u ba'zan o'tkaziladigan tasodifiy tekshirishlarni oldini oladi va tartibli doimiy baholash uchun imkoniyatlar ochib beradi.

Umumiy o'rta ta'lim reyting tizimi to'g'risidagi Nizomda "O'quvchilar bilim darajasi sifatini nazorat qilishning reyting tizimini joriy etishning asosiy maqsadi nazoratning har xil turlari va shakllaridan foydalanish yo'li bilan umumiy o'rta ta'lim davlat ta'lim standartlari talablari bajarilishini ta'minlash, ta'lim samaradorligini oshirish hamda o'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishdan iborat"¹, deb ko'rsatiladi.

Hozirgi kunda uzluksiz ta'limning umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb hunar ta'limini va oliy ta'lim bosqichlarida o'quvchilar bilimini reyting tizimida baholanadi. Baholashning bunday shakli o'quvchilarni butun o'qish davomida o'z bilimlarini oshirish uchun muntazam ishlashni hamda o'z ijodiy faoliyatini takomillashtirishni rag'batlantirish g'oyasiga asoslanadi.

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida shaxsni rivojlantirishga berilgan juda katta e'tiborning boisi shundaki, faqat shaxsning kamoloti uning intellektual zakovatigina jamiyat taraqqiyotining omili bo'la oladi. Shaxsdagi intellektual zakovat esa yaxshi tashkil etilgan ta'lim tarbiya jarayonidagina uyg'onish tarqqiy eish va shaxs kamolotini ta'minlashi mumkin. O'qituvchi o'quvchilarning intellektual imkoniyatlarini maksimal ishga solish yo'lini izlab topishi lozim.

Pedagogika fani bilimlarni o'z vaqtida nazorat qilish va baholashning uchta vazifasi borligini alohida uqtiradi. O'zlashtirishni nazorat qilish va baholash

¹ UO'T muassasalarida o'quvchilar bilim darachasini nazorat qilishning reyting tizimi to'g'risida muvaffaq nizom G'G'"Xalq ta'limi", 2000. 4-son, 10-23-b.

natijalariga qarab Davlat ta'lim standartlari qanday bajarilayotganligini nazorat qilinadi va vazifalar belgilanadi.

Bilimlarni nazorat qilish va baholash natijasida o'quvchi, talabalarda bilimlar yanada kengayadi. Bu bilan o'quv yurtlari oldida turgan ta'limiy maqsad bajariladi. Ta'lim sohasidagi yaxshi natijalar yoshlar tarbiyasiga ham ta'sir ko'rsatadi. Ularda ko'tarinki ruh, o'z kuchiga bo'lgan ishonch va qiziqishlar paydo boladi. Shuning uchun ham o'zlashtirishni nazorat qilish ta'lim tizimining ajralmas qismidir. Nazorat jarayonida uning yozma, og'zaki va amaliy metodlaridan keng foydalanilmoqda. O'qituvchi o'quvchini faollashtiradigan, o'zi va o'rganuvchi uchun qulay bo'lgan yo'llarni, metod, o'qitish shakllari va vositalarini takomillashtirib boradi. Shu boisdan ham «pedagogik texnologiya», «didaktik texnologiya», «ta'lim texnologiyasi» atamalari qatoridan «pedagogik innovatsiyalar» atamasi mustahkam o'rin olmoqda. O'zaro ta'sir natijasida nazorat etish vaqt nuqtayi nazaridan uch turli bo'ladi.

Joriy nazorat - har bir darsda uzoq va yaqindan o'tilgan o'quv materialining o'zlashtirilishini tekshirish demakdir.

Unda nazorat savollar berish, qoidalar, ta'riflarga oid ma'lumotlar keltirish, berilgan materiallarni tahlil etish, mavzularning mazmunini ochib berish, qisqa muddatli munozaralar tashkil etish, o'quv topshiriqlarini bajartirish kabi metodlardan foydalaniladi. Joriy nazorat qisqa muddatda o'tkazilishi bilan xarakterlanadi.

Oraliq nazorat - o'quv fanining bir bo'limi, katta qismi o'tib bo'lingandan keyin tashkil etiladigan tekshirishdir. Unga alohida o'quv soati ajratiladi. Oraliq nazoratda o'rganilgan bo'lim mazmuniga mos savollar tizimiga javob olinadi, o'quv tizimi topshiriqlari bajartiriladi, uzoq muddatni oladigan munozara o'tkaziladi. Savollar, o'quv topshiriqlar tizimi, uzoq muddatli munozara, og'zaki yoki yozma hisobot kabilar davriy nazorat metodlari hisoblanadi.

Yakuniy nazorat - o'quv fani to'liq o'rganilgach, chorak oxirida, o'quv yili so'ngida tashkil etiladi. Unda o'quv fani mazmunini o'ziga to'liq qamrab oladigan metodlardan foydalaniladi. O'quv fani doirasida qo'llangan termin va tushunchalarga (og'zaki yoki yozma) izoh yozishi, o'quv faniga oid yetakchi g'oyalarni hayotga ishlab chiqarishi, amaliyotga tatbiq etish, o'quv fanining inson hayotida tutgan o'rni

baholash, o'quv fani doirasida o'rganilgan nazariy va amaliy bilimlariga o'z munosabatini bildirish kabi metodlar nazoratning samaradorligini oshiradi.

Oquvchilar miqdoriga ko'ra nazoratning uch xil ko'rinishi mavjud:

1. Individual tekshirish-alohida o'quvchiga mo'ljallangan nazoratdir. A'lochi o'quvchiga mo'ljallangan o'quv topshirig'i o'rtacha tayyorgarlikka ega bo'lgan bola uchun qiyin bo'lganidek, O'rta o'zlashtiradigan o'quvchi uchun tuzilgan o'quv topshirig'i a'lochi o'quvchi uchun juda ko'p sanaladi.

Ko'rinadiki, individual nazorat har bir o'quvchining bilimi, tayyorgarlik darajasiga qarab tayyorlanadi. Demak, individual nazorat metodi sifatida tanlangan suhbat, savol, topshiriq, mustaqil ish, laboratoriya mashg'uloti va shu kabilarning bajaruvchi-ijrochisi oldindan belgilanadi.

2. Tabaqalashgan nazorat-sinf jamoasini bilim, malakalarini o'zlashtirish darajasi, real bilish iinkoniyallariga qarab kichik jamoalarga ajratish va jamoalarning har biriga mos metod, vosita tanlab tekshirishni o'tkazishdir. Sinf o'quvchilari, ularning individual xususiyatlari asosida kichik jamoalarga ajratiladi. Eng yuqori darajada o'zlashtiruvchi o'quvchilar o'ta murakkab, yaxshi o'qiydigan o'quvchilar jamoasiga nisbatan oson, past o'zlashtiruvchilar jamoasi esa yanada osonroq topshiriqlarni mustaqil ishlarni bajaradi.

3. Yalpi nazorat-sinf jamoasining barchasiga mo'ljallangan tekshirishdir. Masalan, diktant shunday metodlar sirasiga kiradi.

Baholashning reyting-test tizimini yanada takomillashtirish orqali ham o'quvchilarning intellektual imkoniyatlarini aniqlash va rivojlantirib borishga harakat qilishimiz kerak.

I- Bob. O'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalarini sinovdan o'tkazish va baholash mezonlari.

1.1. Ta'lim tizimida o'quvchilarni bilimini o'zlashtirishini baholash jarayoni.

Yoshlarga ta'lim-tarbiya berish masalalarida yangicha yondashish davr talabi bo'lib kelmoqda. Zero Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida “Ilg'or pedagogik texnologiyalar, ta'limning yangi shakl va uslublari, o'quv shu jumladan, tabaqalashgan dasturlar amaliyoti joriy etiladi”¹, deb ta'kidlanadi.

Respublikamizda uzluksiz ta'lim tizimini joriy etishdan ko'zlangan asosiy maqsad – yosh avlodda yuqori kasbiy madaniyat, ijodiy va ijtimoiy-siyosiy faollik, erkin fikr yuritish kabi qobiliyatlarni shakllantirishdan iborat. Bunda avvalo, tahsil oluvchilarning faolligini oshirish talab qilinadi. Shuning uchun ham o'quvchilarning mustaqil, ijodiy, tanqidiy fikrlarini o'stirishda ta'limning interfaol usullaridan keng hamda o'rinli foydalanish maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga o'quvchilarda mehnat ta'limiga oid bilim va ko'nikmalarini shakllantirishda dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etishda tizimlilik, aniq maqsadga yo'naltirilganlik, o'qitish ishlarining natijalarini nazorat qilish hamda baholashga yangicha usullarni joriy etish kabilar yetarlicha o'z aksini topmay qolmoqda. Shuning uchun umumta'lim maktablarida o'quv uslubiy ishlarni takomillashtirishda ta'lim va tarbiyaning faol usullaridan foydalanish, o'qitishning hamda sinov-nazorat ishlarini o'tkazishni maqbul shakllaridan oqilona foydanish yo'llarini izlab topish dolzarb masalaga aylanib bormoqda.

Ma'lumki, o'qitish usullari o'qituvchining o'quvchilar bilan muayyan maqsadlarga erishish yo'lidagi faoliyatidan tarkib topgan bo'lib, kimga nimani qanday o'rgatish zarurligi haqidagi masalalarni ochib berishga xizmat qiladi. Shuning uchun o'quvchilarni bilish faoliyatlarini faollashtirish va ularning mustaqil, ijodiy fikrlashlari uchun qo'llaniladigan shakl va usullarini mos ravishda tanlash kelgusida kadrlar tayyorlashda o'z samarasini beradi.

¹ “Xalq ta'limi jurnali”. 2008. 1-son, 58-b.

O'rta maxsus, kasb-hunar muassasalarida o'quv tarbiyaviy jarayon unumli mehnatni amalga oshirish uchun o'quvchilarni tayyorlashga yo'naltirilgan bo'lib, malakali, unumli mehnat o'quvchilarning ta'lim-tarbiya olish jarayonida shakllangan bilim, malaka va ko'nikmalariga asoslangandir.

O'quv tarbiyaviy jarayon – boshqariladigan va rostlanadigan jarayon bo'lib, o'qituvchi, ustoz va o'quvchilardagi bilim, malaka va ko'nikmalarni son va sifat jihatdan haqqoniy baholash o'quv-tarbiyaviy jarayonda olingan natijalarga qarab o'zgartirishlar kiritib borish bilan birga o'zining faoliyatiga ham tavsif beradi.

O'quvchilarning bilim, malaka, ko'nikmalarni va qobiliyatlariga baho berishdan oldin yana bir bor bilim, malaka, ko'nikmalarni va qobiliyatlarini qarab chiqaylik.

Bilim – nazariy va amaliyot faoliyat natijasida o'rgangan, esda saqlab qolingan, fikrlashtirilgan hodisa va predmetlar haqidagi tushunchalar tizimidir.

Bilimlar o'z navbatida tizimli va tizimsiz, nazariy va amaliy, keng va tor, chuqur-yuzaki, moslashuvchan, andozali, mustahkam va mustahkam bo'lmagan turlariga bo'linadi. Bularning ichida kasbiy ta'lim natijasida hosil bo'ladigan nazariy va amaliy bilimlarni oshirish mumkin. Chunki nazariy bilimlar narsalarning (predmetlar) yetarli darajadagi xususiyatlarni, texnika va texnologiyalar hodisasini va ularning obyektiv munosabatini bildiradi. Amaliy bilim esa texnika va texnologiya sohasidagi jarayonlarning aloqasini, hodisasi va boshqalarning to'g'ridan-to'g'ri amaliy faoliyatiga kiritilganligini bildiradi.

Malaka - bu o'quvchilarning avtomatik ravishda amalga oshirilgan holda birorta ishni bajarish qobiliyatidir.

Ko'nikmani shakllantirish bu kasbiy ta'limning majburiy oxirgi maqsadi bo'lib, bu ko'nikma, o'qish, amaliyot jarayonida bosqichma-bosqich shakllanib boradi.

Kasbiy qobiliyat – kasbiy faoliyat sharoitida ishni mufavvaqiyatli bajarish uchun zarur bo'lgan shaxsning shaxsiy-psixologik sifat belgisidir.

Qobiliyat tug'ma bo'lmasdan uning ko'zga tashlanishi yoki ajralib turishi muhitga, o'rganishga, tarbiyaga bog'liqdir. Qobiliyatning tug'ma ko'rinishi uning

qabul qila olishi, fikrlashi, xotirasi, faraz qilishi va boshqalar bo'lgani uhun bular rivojlantirilsa, to'g'ri yo'lga solinsa, qobiliyat yuqori cho'qqiga chiqadi.

Bilim, ko'nikma, malaka va qobiliyat o'zaro bog'liq bo'lib, ularni alohida-alohida baholash juda murakkab. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash ustozning, o'qituvchining uslubiy faoliyatini tarkibiy qismidir. Shuning uchun ham o'qituvchi o'quv sharoitida har har bir o'quvchini diqqat bilan ko'zatib o'rganib borish va faoliyatni baholash zarur.

Bilim, ko'nikma va malakalarni tekshirish va baholash, o'quv jarayoning eng muhim va zaruriy qismlaridan bo'lib, u 3 asosiy vazifani bajaradi:

a) bolalar tomonidan o'zlashtirayotgan bilim, hosil qilingan ko'nikma va malakalarni nazorat qilish;

b) bilimlarni sifatini aniqlash;

o'quv dasturida belgilangan materiallarni ongli, izchil va mustahkam o'zlashtirib olishga undash.

Bu masalalar ta'limiy ahamiyatga molikdir. Bilim, ko'nikma va malakalarni tekshirish va baholash jarayonida o'quvchilar o'qishga ongli munosabatda bo'lishga, izchil ishlashga, ongli intizomga, qiyinchiliklarni yengish, o'zida irodaviy sifatlarni o'stirishga, o'ziga hamda boshqalarga nisbatan talabchan bo'lishga o'rgatib boradi. Bu masalalar esa katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir.

O'quvchilar bilimini tekshirish bolalar tomonidan o'zlashtirilgan bilimni sifatini aniqlash, ularni o'quv dasturida belgilangan materiallarni izchil va puxta o'zlashtirib olishga da'vat etish vositasidir. O'qituvchi bilimlarni tekshirish orqali o'quvchining o'quv materialini qanday idrok etib tushunganligini, qanday fikr yuritayotganligini, dasturda belgilangan o'quv materiallarni qay darajada o'zlashtirib olganligini aniqlaydi hamda keyingi o'quv materiallarni o'rganish, ta'lim sifatini yaxshilash yo'llarini belgilaydi. Shu bilan birga o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishini o'rganish va tekshirish ularning o'qishga bo'lgan munosabatini, tirishqoqligini, o'ziga talabchanligini, bilimga, fanga bo'lgan qiziqishini bilishga imkon beradi. Shuningdek, bolalarning xotirasi, bililish qobiliyatlarining qay darajada usganligi, ularning mustaqil ishlashga ko'nikma va malakalarini qay darajada

egallaganliklari aniqlanadi. Tekshirish vaqtida o'quv materiallari esga olinadi va o'quvchilarni sezish, idrok qilish, fikrlash qobiliyatlari ham usib boradi. Bu jarayonda o'quvchilar keng fikr yuritishga, o'quv materiallarni asoslashga, mulohaza yuritish, isbotlashga o'rganadilar.

O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarni tekshirishning yana bir muhim tomoni shundaki, ana shu jarayonda o'quvchilarning bilimlari va bajargan ishlaridagi kamchiliklar sezilib qoladi va nihoyat mazkur kamchiliklarni bartaraf etish choralari belgilanadi.

Bilimlarni tekshirish va baholash darsning barcha qismlariga singib ketadi. Shunday ekan, u o'quvchi bilimidagi kamchiliklarni to'ldirishga, o'rganilayotgan masalaning asl mohiyatini anglashga yorda beradi va o'rganilayotgan materialni tushunishga keng imkoniyat yaratadi.

O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarni tekshirish va baholash jarayonida o'qituvchi ayrim o'quvchilarga va butun sinf jamoasiga izchil ta'sir tadi, individual ishni sinf jamoasi ishi bilan qo'shib olib boradi.. tajribali o'qituvchilar o'quvchi bilimini baholash jarayonida sinf jamoasi fikriga suyanadilar va o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir etadilar. Bunda o'qituvchi sinf o'quvchilari diqqatini faollashtiradi, o'rtoqlarining javobiga mas'uliyat bilan qarashga o'rgatadi. Shuningdek, o'z bilimlarini mustahkamlashga, o'z bilimiga tanqidiy qarashga odatlantiradi. Bu esa o'quvchini o'z vaqtida vijdonli, rostguy bo'lishga o'rgatadi.

O'qituvchi bilimga baho qo'yish vaqtida o'quvchining materialni o'zlashtirish saviyasi, bola tafakkurining o'sish darjasi, zenining rivolanihi kabi xususiyatlarini hisobga oladi: o'quvchilarning ishlash sur'ati, qobiliyati, o'qishga ishtiyoqi, nutqning o'sish darajasi o'rganiladi. Shuningdek, ayrim o'quvchilarda uchraydigan qurqoqlik, uyatchanlik, tortinchoqlik, o'z kuchiga ortiqcha baho berish, ishonmaslik, shoshqaloqlik, kamgaplik xususiyatlari bartaraf etiladi.. buning natijasida ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining uyg'unligi ta'minlanadi.

Bilim, ko'nikma va malakalarni tekshirish va baholashning tarbiyaviy ahamiyati shundaki, bunda o'quvchilarda o'qishga, o'z yutuqlari va muvaffaqiyatsizliklariga nisbatan munosabat shakllanadi, qiyinchiliklarni yengish

istagi tug'iladi. Baho unda hamisha o'quvchi sifatida, shaxs sifatida o'ziga nisbatan muayyan bir munosabatni hosil qiladi. O'quvchining o'ziga nisbatan bu munosabatni, bu tuyg'ularni o'qituvchi uning hatti-harakatlaridagi irodalilik, jamoatchilik, o'zaro bir-biriga yordam berish kabi sifatlarni shakllantirish borasida ustalik bilan ishlatadi

Umuman olganda ta'lim – tarbiya jarayonida bilim, ko'nikma va malakalar shakllanganligini nazorat qilish muhim o'rin egallaydi. Xususan, nazorat quyidagi funksiyalarga ega:

- 1) Nazoratning diagnostik funksiyasi. Nazorat natijasi orqali bilim, ko'nikma va malakalarning shakllanganlik darajasi aniqlanadi.
- 2) Nazoratning ta'lim oluvchilardagi bilim olishga bo'lgan ishtiyoqini o'stirish funksiyasi.
- 3) Nazorat jarayonida ta'lim oluvchilarning shaxsiy jihatlari shakllantiriladi va eng asosiysi rivojlantiriladi.
- 4) Ta'lim funksiyasi.
- 5) Nazoratning tarbiyaviy funksiyasi.
- 6) Nazoratning baholash funksiyasi.
- 7) Nazoratning ta'lim oluvchilardagi bilimga qiziqishni o'yg'otish, jonli fikrlashga o'rgatuvchilik funksiyasi.

Ma'lumki, nazorat asosan uch turga bo'linadi. Ular: joriy nazorat, oraliq nazorat va yakuniy nazoratlardir. Bulardan tashqari so'nggi nazorat turi ham bor. Nazorat turi testlar, yozma ishlar va og'zaki savol – javoblar orqali amalga oshiriladi. Pedagog olimlar I.Tursunov va U.Nishonalievlarning ma'lumotlariga qaraganda testlar orqali quyidagi imkoniyatlar yaratiladi:

- ta'lim oluvchilar nazariy va amaliy bilimlarining darajasini ob'ektiv sharoitda aniqlash imkonini beradi;
- bir vaqtning o'zida bir guruh yoki ko'p sonli ta'lim oluvchilar bilimini nazorat qilish mumkin;
- hamma ta'lim oluvchilarda bir xil qiyinchilikdagi savollar berilib, hammasiga bir xil sharoit yaratiladi;
- test natijalarini ta'lim beruvchi tomonidan tezkorlik bilan tekshirish mumkin;

- turli guruhdagi ta'lim oluvchilar bilimini solishtirish, qo'llanilayotgan metodning samaradorligini aniqlash mumkin;
- ta'lim jarayonida uchraydigan kamchiliklarda aniqlash mumkin.

Boshqa o'quv predmetlari qatori mehnat ta'limi darslarida ham o'quvchilar ma'lum hajmdagi bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlari kerak. O'qitishdagi muhim ishlardan biri dars va amaliy mashg'ulot jarayonida o'quvchilarning bilim darajasini aniqlash, uni to'g'ri baholash hisoblanadi. O'z bilimini boshqalar tomonidan to'g'ri haqqoniy baholanishiga ishonch hosil qilgan o'quvchida o'quv faoliyatiga nisbatan qiziqish, o'ziga nisbatan esa ishonch ortadi. Aksincha o'quvchining bilimini baholashda nohaqlikka yo'l qo'yilsa, asta-sekin uning o'qishdan ko'ngli soviy boshlaydi, o'qishga nisbatan befarqlik alomatlari yuzaga keladi.

Ma'lumki turli o'quv predmetlarni o'qitishda o'quv dasturlaridan va fanning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, o'quvchilar bilimiga turlicha talab qo'yiladi. Hozirgi kunda o'quvchilar bilim darajasini yangidan-yangi usullari qo'llanilmoqda.

Ko'zatlarda shu narsa ma'lum bo'ldiki, aksariyat o'qituvchilar o'quvchilarning bilim darajasini baholashda kopgina qiyinchiliklarga duch kelishmoqda. Ko'p hollarda o'quvchilarning o'tilgan mavzu bo'yicha egallagan bilim hamda mehnat ko'nikmalarini aniqlash va baholash eskicha usullarda, ya'ni oddiygina savol-javob tarzida olib borilishi ulardagi fanga bo'lgan qiziqishni susaytirib qo'ymoqda. Darsni strukturaviy tuzilishiga ko'ra, o'qituvchi hamma bosqichlarni o'z vaqti, me'yyorida o'tib ulgurishi kerak. Bu esa sinfdagi barcha o'quvchilar bilimini baholashga bo'lgan imkoniyatni cheklaydi. Darsning asosiy qismi – “Yangi mavzu bayoni”ga 30-35 daqiqa ajratiladi, natijada mustahkamlash va o'quvchilar bilim darajasini baholashga uncha ko'p vaqt qolmaydi. Bu esa o'quvchilarga berilgan saboq natijalarini aniqlashning yangi, kam vaqt talab qiladigan usullarni qo'llashni taqazo etadi. Shuning uchun biz mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilar bilimini baholashning qo'yidagi usulini taklif qilmoqchimiz. Buning uchun o'quvchilar orasida “Siz necha ballga loyiqsiz?” mavzusidagi didaktik o'yin tashkil etiladi. O'yin shartiga ko'ra, o'qituvchi o'quvchilarga “Hurmatli

o'quvchilar, hozir har biringiz o'tilgan mavzular bo'yicha ikkitadan savlolni o'ng tomoningizda o'tirgan o'rtog'ingizga berasiz. Savollarni to'g'ri, lo'nda va o'rinli bo'lishiga e'tibor bering. O'yinimiz qoidasiga ko'ra, savol bergan kishi o'rtog'ini yozgan ishini, ya'ni javobini tekshirib boradi. Sizlar ikki imkoniyat: savollarga to'g'ri javob yozish va tekshirishda uchtadan ortiq asosli (izohlangan) hatto kamchiliklarni aniqlash orqali baholanasiz"¹, - deb tushuntiradi. (Izoh oxirgi o'ng qatorda o'tirgan o'quvchilar keyingi darsda o'rinlarini almashtirib oladilar yoki ularga o'qituvchi boshqa vazifa berishi ham mumkin).

Savollar berilgach, ularga javob topish paytida sinfxonada osoyishtalik ta'minlanadi. O'yin shartiga ko'ra, o'quvchilar bir-birlarini bezovta qilmasliklari uchun yordam bergan o'quvchining balidan chegirilishi haqida ogohlantiriladi. Shu tariqa o'ng tomondagi o'quvchining javobi savol bergan o'quvchi tomonidan tekshirib baholanadi. O'z navbatida, o'yin shartiga ko'ra, o'qituvchi o'quvchilarning faoliyatini ikki ishda: berilgan javobning to'g'riligi va uni tekshirish natijalariga ko'ra baholaydi.

Shuningdek, o'quvchilar bilim, ko'nikmalarini baholashning usullaridan biri testdir. Bunda o'qituvchi o'quvchilarga ikki xil variantda test materiallarini tarqatadi. Bu usulda test materiallari variantlar bo'yicha sinf o'quvchilariga teng yetadigan darajada bo'lishi kerak. Bir xil variantdagi o'quvchilarning joylashuvi va munosabatlari dars davomida e'tiborga olinadi. Testlarni yechishda o'quvchilarni nazorat qilishni ikkita a'lochi o'quvchiga bolalar sonini teng ikkiga bo'lib topshiriladi. O'z-o'zini nazorat qilish natijasida test savollarini yechishga kirishiladi. Yakunlangan tashtlarni tekshirish yig'ishtirib olinib, almashtirilib tarqatiladi. Javoblar ikkita o'qituvchi tomonidan beriladi. Sinfdoshlari esa tekshirishni amalga oshiradi. Darsning o'z-o'zini boshqarishi va natijalarini baholashga 10-15 daqiqa vaqt sarflanadi. Qolgan vaqtlar darsning boshqa bosqichlari amalga oshiriladi. Bunda 100 foiz o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini tekshirib, baholashga erishiladi.

O'quvchilarning bilimi mazkur usullar orqali baholanganda unchalik ko'p vaqt sarflanmaydi. Aksincha, kam vaqt ichida ko'proq o'quvchilarning bilim darajalari

¹ "Xalq ta'lim" jurnali. 2008, 1-son, 61-b.

aniqlanadi. O'quvchi ikki imkoniyatdan manfaatdor bo'lganligi uchun o'zidagi fikrlash qobiliyatini namoyon qilishga intiladi, baholashning o'quvchilarning ishtirokida odilona o'tkazishga erishiladi. Bu esa o'quvchilarda mustaqil fikrlash, o'zgalar faoliyatiga xolisona baho berish, o'z kamchiliklarini ko'ra olish hamda tuzatish kabi sifatlarni shakllantirishga ko'maklashadi.

O'quvchilar bilimini tekshirish va baholashdan maqsad o'quvchilar bilimining sifatini, rivojlantirish darajasini ta'minlash va ularni rag'batlantirishdan iborat bo'lib, bilim olishga qiziqishini takomillashtirishdir.

Bilimlarni tekshirish va baholashdagi asosiy kamchiliklar:

- Uning vazifalarini to'g'ri tushunish;
- Ta'lim jarayonida uning rolini asossiz ko'tarib yuborish;
- Tekshirish va baholashning darsda asosiy maqsadga aylanib qolishi;
- Bilimlarni tekshirish va baholashda bir xil texnologiyadan foydalanish;

O'quvchilar bilimini tekshirish va baholashda bu jarayon nazorat qiluvchi, ta'lim-tarbiya beruvchi muhim funksiyani bajarishni unutmaslik kerak.

Bu nazorat uchun asosiy funksiya bo'lib, ta'lim beruvchi va tarbiyachi yordamchi funksiyadir. Biroq tekshirish maqsadi va ko'rinishi turlicha bo'lganda, bu uch funksiya turlicha namoyon bo'lishi mumkin. Masalan, tekshirishning yakuniy imtihon shaklini oladigan bo'lsak (uni o'tkazish usullari turlicha bo'lishi mumkin), bunda nazorat qilish funksiyasi ustunlik qiladi (ta'limga vaqt qolmaydi).

O'rganilayotgan materialni o'zlashtirish bo'yicha joriy tekshirish olib borilsa, bu holat ta'lim beruvchi funksiyasi ustun bo'lishi kerak. Tarbiya berish funksiyasi ham ustun bo'lishi mumkin. Masalan, o'qituvchi, ba'zi o'quvchilarni sistemali ishlashga o'rgatishga intiladi, baho bilan rag'batlantirib, ularning ruhiy xususiyatlariga (irodasini rivojlantirish, xotirani mustahkamlash va h.k.) ta'sir etishga harakat qiladi, me'yyoridan ortiqcha o'ziga bino qo'yish holatlarida bahoga qat'iy yondoshib ish ko'riladi. Umuman olganda, baho xolis (ob'ektiv) bo'lishi bo'lsa-da, biroq o'z tabiatiga ko'ra hamisha noxolis (subyektiv)dir.

Ushbu funksiyalarga muvofiq o'quvchilar bilimini tekshirish va baholashning aniq usullari tanlanadi.

O'quvchining fanga doir egallagan bilimlarini baholashning odatda turli xil shakl usullari qo'llaniladi: og'zaki baholash, yozma baholash, test usulida va reyting tizimi orqali baholash shular jumlasiga kiradi.

Og'zaki nazorat qilish va baholashning yaxshi jihatlari:

- o'qituvchi o'quvchi bilan bevosita, jonli aloqada, muloqotda bo'ladi;
- o'quvchining bilimini chuqurroq anglash uchun qo'shimcha savollar berish imkoniyati tug'iladi;
- og'zaki javob o'quvchini og'zaki nutqini mashq qilish va faol fikrlashga undaydi.

Og'zaki javob berishda yaxshi tayyorlangan o'quvchi o'z bilimdonligi, qo'shimcha o'rganganlarini namoyish eta oladi. Bevosita so'rash paytida o'quvchining bilimini o'zlashtirish masalasida o'qituvchida ilgari tug'ilgan ayrim shubhalar bartaraf etiladi.

Yozma baholashning yaxshi tomonlari:

- yozma tarzda berilgan javob o'quvchi o'quv materialni o'zlashtirib olganiga hujjatli dalil bo'ladi;
- o'quvchi o'z fikrlarini qog'ozda ifodalash uchun amaliyotdir; ekspertlar o'tkazgan yozma nazorat o'quvchining bilimiga obyektiv baho qo'yishga imkoniyat yaraladi.

Og'zaki va yozma baholashga xos jiddiy nuqsonlar:

- o'quvchining bilimiga qo'yiladigan baholarga subyektivlik alomati ko'proq. Baho ko'pincha boshqa o'quvchilarga nisbatan qo'yiladi, bunda baho kamaytirilishi yoki oshirib qo'yilishi ham mumkin. Imtihon oluvchilar bitta og'zaki javob yoki bitta yozma ishga turlicha javob qo'yishlari mumkin;
- imtihonda o'quvchi biletidagi 3-4 ta savolga javob beradi, baho esa butun o'quv predmeti dasturi mazmunini bilgani uchun qo'yiladi;
- besh balli baho balli shkalasi bilim o'zlashtirish darajalari orasidagi tafovutlarni aniq belgilashga imkon bermaydi;
- og'zaki va yozma imtihon olib baholashlar bilim o'zlashtirish sifatini obyektiv, aniq va asosli baholashni ta'minlay olmaydi;

- og'zaki so'rashga, shuningdek, yozma ishlarni tekshirishga vaqt ko'p ketadi;
- Og'zaki va yozma nazorat uchun kompyuterni ishlatish qiyin, ularni avtomatlashtirib bo'lmaydi.

Tekshirishning ko'p qo'llanadigan ikki xili mavjud ular joriy va yakuniydir.

Joriy tekshirishning hammaga ma'lum turlari qo'yidagilar:

Og'zaki so'rashning har xil shakllari, yozma uy vazifalarini tekshirish, yozma nazorat (mustaqil) topshiriqlari. Biroq bunday an'anaviy shakllar bilan bir qatorda turli perfokartalar yordamida tekshirish, kompyuter yordamida topshiriq bajarilishni tekshirish ham qo'llanilayapti.

Tekshirishning o'ziga xos shlakli o'quvchilarni o'qituvchi tomonidan kundalik muntazam ko'zatib turishdir. Tekshirishning turli-tuman shakllari o'ziga xos dars bosqichi kabi faqat an'anaviy "so'rash" jarayonidagina emas, balki butun dars mobaynida qo'llaniladi.

O'qituvchi darsga tayyorlanishda tekshirishning zarur shakllarini izlash va qo'llash eng muhim vazifasi ekanligini unutmasligi kerak. Kimdan qachon, qancha o'quvchini tekshirish, qanday savollar bilan, qanday vositalar orqali so'rash va baholash – bularning barchasini o'qituvchi darsga tayyorlanish paytida o'ylab chiqmog'i lozim.

Shu bilan bir qatorda o'quvchilar o'z o'rtog'i bilimi so'ralayotganda nima bilan shug'ullanishi zarurligi haqida ham o'ylashi kerak bo'ladi. Har bir o'qituvchining o'z nazorat tizimi bo'lishi lozim. Bu tizim ishning turli-tuman vositalari usullarini qamrab olishi, o'quvchilar o'qituvchisining o'z muvaffaqiyatlari, bilimlarni o'zlashtirish darajasi va sifatini hamisha tekshirib turishini tushunsinlar.

Tekshirish shakllari maktablarimiz ta'lim jarayoniga xos bo'lgan, o'quvchilarni bilimlarni faqat o'zidan qabul qilishi, reproduktiv faoliyatni tashkil etish bilangina tugamasligi lozim. Nazorat (tekshirish) shakllarini tanlashda o'quvchilarning individual xususiyatlarini e'tiborga olish muhimdir.

Yakuniy yozma ishlarga alohida talab bilan qarash zarurdir. Ularni o'qituvchi o'quv materialini ko'pchilik o'quvchilar o'zlashtirib olganiga ishonch hosil qilgandan

so'ng o'tkazish mumkin. Bunday ishlar o'quvchilar uchun asosli bo'lib, o'z kuchlariga ishonch xususiyatini shakllantirishga yordam beradi, aks holda esa o'qitish jarayoniga qiziqishi pasayadi.

Bilimlarni tekshirishning yozma yoki og'zaki shakllari to'g'risida gapirilganda, ularning har biri o'ziga xos xususiyatga ega ekani va o'z vazifasi borligini aytib o'tish darkor. Og'zaki shakli – savolni tez idrok etish (reaksiya) ko'nikmasini hosil qilish o'quvchilar xotirasini rivojlantirishga yordam beradi. Yozma tekshirish esa mantiqiy mushohada (fikrlash)ni samarali kengaytiradi, javoblarda aniqlik ko'proq bo'lishga o'rgatadi. So'nggi yillarda o'quvchilar bilimini va rivojlanish darajasini aniqlash maqsadida turli test skallaridan keng foydalanilmoqda.

Bilimlarni baholashga qo'yiladigan talablar. O'quvchilar bilimini baholashda qancha xolis munosabatda bo'linsa, u o'quvchilarni shuncha rag'batlantiradi. Qoidaga ko'ra o'quvchining darsdagi xulq-arvoriga mukofot yoki jazo sifatida emas, balki bilim darajasi va xususiyatiga qo'yilishi kerak. Bahoga qo'yilgan talablar optimal (oshirib yuborilmagan va pasaytirib yuborilmagan) bo'lishi lozim. Baholarni "oshirish" o'quvchilar rivojlanish darjasini, bilimini pasaytiradi. Shu bilan birga juda katta talab qo'yish ham zararli bo'lib, o'quvchining o'qishga bo'lgan qiziqishini so'ndiradi. O'qituvchining alohida bir o'quvchilarga baho qo'yishda salbiy munosabatiga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Zero o'quv predmetiga muvofiq keladigan dastur baholashning eng xolis mezoni bo'lishi zarur.

Maktablarimiz bilimlarini baholash o'zgartirishsiz qolmadi. 1935 yilgacha uch ballik baho qo'yilgan bo'lib, u "juda qoniqarli", "qoniqarli", "qoniqarsiz" baholar edi.

Usha paytda bugungi kungacha mavjud bo'lgan besh ballik tizim joriy etildi. Bu tizim "a'lo" (besh) – dastur talablariga to'liq hajmdagi bilimlarni egallagan o'quvchiga qo'yiladi;

"yaxshi" (to'rt) – dastur talablarini to'la hajmda arziyas kamchiliklar bilan (Masalan, materialni bayon etish mantiqi buzilgani va b.) o'zlashtirgan o'quvchiga qo'yiladi;

“qoniqarli” (uch) – o‘quvchining bilim darajasi past bo‘lib, uning keyingi materialni o‘rganishida ilgariylashiga yordam beradigan bilim hajmiga qo‘yiladi;

“qoniqarsiz” (ikki) – o‘quvchi o‘zidagi juda past bilimi bilan ilgariylashiga qodir bo‘lmasa qo‘yiladi;

“yomon ”(bir) baho o‘quvchi hech narsani bilmaganda qo‘yiladi. Bu so‘nggi baho juda kam qo‘llanilib, uning mazmuni deyarli “ikki” bahoga tengdir.

Bilimlarni baholashda xolislikni (obyektivlikni) saqlagan holda ba’zi holatlarni ham nazarda tutish lozim; masalan, joriy yoki yakuniy bilimlar baholanadi (yozma ish, chorak bahosi va b.), o‘quvchining intilishi, uning o‘quv ishlaridagi barqarorligi va h. o‘quv fanini xususiyatlarini, ba’zi bilimlar, ularning aloqadorligini o‘zlashtirish holatini nazardan qochirmaslik zarur.

O‘quvchilar bilimini tekshirish va baholashning an’anaviy tizimi jiddiy nuqsonlarga ega, negaki u ta’limiy, tarbiyaviy, diagnostik va rag‘batlantiruvchi funksiyalarini zarur darajada amalga oshirmaydi. Modomiki, shunday ekan, undan voz kechish yoki uni yanada takomillashtirish shakliga almashtirish maqsadga muvofiq emasmikan?

Ehtimol, bahoning jazolash vazifasidan xalos bo‘lgan o‘quvchilar yaxshiroq o‘qishni va ta’limiy burchlariga ancha vijdonan munosabatda bo‘lar edi. Bugungi kunda o‘quvchilarning o‘zi bahoga qanday munosabatda bo‘lyaptilar? Boshlang‘ich sinflardagi o‘quvchilarning 98 foizi baho saqlanishi zarurligini aytadi. Bahoni bekor qilish o‘qitishga bo‘lgan qiziqishni oshirishga, o‘qitishning ichki shakllantirishga yordam beradi, degan fikr ham o‘zini oqlamadi.

O‘rta va yuqori sinf o‘quvchilarining uquv faoliyatini baholash zarurligini qayd etganlar soni boshlang‘ich maktabdagidek bo‘lishiga ishonamiz, albatta.

1.2. Reyting tizimi va uning samaradorligi.

O'qituvchi nazorati va ta'lim oluvchilar faoliyatini baholashning uyg'unligi

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2010 yil 25 avgustdagi 333-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to'g'rsida"gi nizomda "Talabalar bilimini nazorat qilish va reyting tizimi orqali baholashdan maqsad ta'lim sifatini boshqarish orqali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga erishish, talabalarning fanlarni o'zlashtirishida bo'shliqlar hosil bo'lishini oldini olish, ularni aniqlash va bartaraf etishdan iborat.

Reyting tizimining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- talabalarda Davlat ta'lim standartlariga muvofiq tegishli bilim, ko'nikma va malakalar shakllanganligi darajasini nazorat qilish va tahlil qilib borish;
- talabalar bilim, ko'nikma va malakalarini baholashning asosiy tamoyillari: Davlat ta'lim standartlariga asoslanganlik, aniqlik, haqqoniylik, ishonchlilik va qulay shaklda baholashni ta'minlash;
- fanlarning talabalar tomonidan tizimli tarzda va belgilangan muddatlarda o'zlashtirilishini tashkil etish va tahlil qilish;
- talabalarda mustaqil ishlash ko'nikmalarini tahlil rivojlantirish, axborot resurslari manbalarida samarali foydalanishni tashkil etish;
- talabalar bilimini xolis va adolatli baholash hamda uning natijalarini vaqtda ma'lum qilish;
- talabalarning fanlar bo'yicha kompleks hamda uzluksiz tayyorgarligini ta'minlash;
- o'quv jarayonining tashkiliy ishlarini kompyuterlashtirishga sharoit yaratish, deb ta'kidlanadi.

Yuqorida keltirilgan hujjatdagi asosiy maqsaddan va qator vazifalardan quyidagi talablar kelib chiqadi.

Ta'limning tarkibiy qismlari o'zaro bog'liq va aloqador bo'lib, u pedagogik jarayon hisoblanadi. Bu jarayonning samaradorligi ko'p jihatdan tashkil etilgan ta'lim vositalari tizimiga bog'liqdir. Bu vositalar butun ta'lim tizimining tarkibiy qismi deb

qaralgandagina o'z ahamiyatini yo'qotmaydi va ta'limning umumiy vazifalarini muvaffaqiyatli hal etishda yordam beradi.

Ma'lumki, ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismlaridan biri – nazorat va hisobga olishdir. Bu tushunchalar o'ziga xos mohiyat va xususiyatlarga ega. Ta'lim beruvchi nazorat va hisobga olishni to'g'ri tashkil etsa, ta'lim jarayonining samaradorligi ortadi. Buning uchun ta'lim beruvchi ta'lim oluvchining o'quv materiallarini o'zlashtirish darajasini aniqlab borishi lozim.

Nazorat (ta'lim jarayonida) ta'lim oluvchining bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash, o'lchash va baholash jarayonini anglatadi. Aniqlash va o'lchash esa tekshirish deb ataladi.

Tekshirish – nazoratning tarkibiy qismi bo'lib, uning asosiy didaktik vazifasi ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar o'rtasida aloqani ta'minlash, ta'lim beruvchi tomonidan o'quv materialini o'zlashtirish haqida ob'ektiv axborot olinishi hamda bilimlardagi kamchilik va nuqsonlarni o'z vaqtida aniqlashdir. Shuningdek, tekshirishning maqsadi nafaqat ta'lim oluvchining bilim darajasi va sifati, balki uning o'quv mehnati hajmini ham aniqlashdan iborat.

Ta'lim oluvchilarning bilim va malakalarini tekshirish quyida ko'rsatilgan mantiqiy ketma-ketlikda olib boriladi: ta'lim oluvchilarning bilim darajasini oldindan aniqlash; mavzuni o'zlashtirishni joriy tekshirish; bilim, ko'nikma va malakalarni egallanganligining takroriy tekshirish; yaxlit bo'lib yoki kursning alohida mavzusi bo'yicha davriy tekshirish; ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida egallangan bilim, ko'nikma va malakalarini yakuniy tekshirish va hisobga olish.

Ma'lumki, ta'lim jarayonidagi natijalarni hisobga olish, tekshirish va bilimni nazorat qilish (monitoringga e'tibor berish) hamda baholash pedagogik faoliyatda muhim bosqichlardir. Jumladan, mazkur faoliyatda ta'lim oluvchining bilimini haqiqiy va adolatli baholash hamda natijalarni ularga muntazam ravishda ma'lum qilib borish katta tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim oluvchilar bilimini nazorat qilish va baholashni to'g'ri yo'lga qo'yish, ularda o'tilgan fanlarga nisbatan ijodiy yondashish, mustaqil fikrlash, o'z bilimini doimiy ravishda oshirish, adabiyotlardan keng foydalanishni yo'lga qo'yish

demakdir. Shu bilan birga ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi uzviy bog'lanishdagi faoliyat olib borishni yuzaga keltiradi, ya'ni o'qitishning o'zaro aloqador ikki vositasini yuzaga keltiradi. Bu ta'lim beruvchi faoliyati va ta'lim oluvchining mehnatga ongli munosabatini uzluksiz jarayon sifatida doimiy bo'lib turishini ta'minlaydi.

Bunda professor – o'qituvchilarning ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarga puxta tayyorgarlik ko'rishi, baholashga doir me'yor va mezonlarni, savolnomalar, test savollari va turli boshqotirmalar hamda tayanch tushunchalarni tuzishdagi mas'uliyatli yondashishi va tinimsiz mehnati yotadi.

Bilimlarning natijalarini baholashda pedagogik testlarning roli

Ta'lim olganlikni tashxis etishning mohiyati¹. Tashxis – bu didaktik jarayon kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtirish, uning natijalarini belgilash demakdir. Tashxisiz didaktik jarayonni samarali boshqarish, mavjud sharoit uchun optimal natijalarga erishish mumkin emas. Bunga sabab talim olganlikni tashxislash orqali erishilgan natijalar va ta'lim olganlik ajratib olinadi. Shuningdek, ta'lim olganlik tashxislash vaqtida belgilangan maqsadni amalga oshirish darajasi sifatida ham qaraladi. Didaktik tashxislashning maqsadi o'quv jarayonida kechadigan barcha jihatlarining uning mahsuli bilan bog'liq holda o'z vaqtida aniqlash, baholash va tahlil qilishdan iborat.

Demak, tashxis ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini an'anaviy tekshirishga nisbatan kengroq va chuqurroq ma'no kasb etadi. Tashxis natijalarni ularga erishish yo'llari va vositalari, usullari bilan aloqadorlikda baholaydi, ta'lim mahsulining shakllanish jarayonlari va bosqichlarni aniqlaydi. Tashxislash, nazorat, tekshirish, baholash, statistik ma'lumotlar to'plash, ularni tahlil qilish, dinamika, tendensiyalarni (an'analarni) aniqlash, voqealarning keyingi rivojini taxminlashni o'z ichiga oladi.

Ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish, baholash tashxislashning zaruriy tarkibiy qismlari sanaladi. Ta'limni baholashda ziddiyatli

¹ Ushbu mavzu mohiyatini ochib berishda I.P.Podlaso'y qarashlaridan foydalanildi (Podlaso'y I.P. Pedagogika. V 2-x kn. 1. – Moskva, Vldos, 2001).

qarashlarning tug'ilishini buyuk pedagog YA.A.Komenskiy ham ta'kidlab o'tgan edi. U pedagoglarni o'zlari ega bo'lgan baholash huquqidan aql bilan foydalanishga chaqirgan. Ta'lim oluvchilarga nisbatan nazoratning ob'ektiv bo'lishiga erishish didaktik tizimlarning asosida yotadi.

Olimlarning ta'kidlashicha, demokratlashgan ta'lim tizimida yuzaki (formal) nazorat bo'lmasligi lozim. Didaktik nazorat o'qitishning o'ziga xos metodi sifatida aniq ifodalangan ta'lim beruvchi, rivojlantiruvchi yo'nalganlikka ega bo'lishi, o'z – o'zi bilan nazorat qilish bilan birlashishi, eng avvalo, ta'lim oluvchining o'zi uchun zarur va foydali bo'lishi lozim.

Ta'lim tizimini demokratlashtirish bilim, ko'nikma va malakalarni nazorat qilishdan emas, balki baho yordamida o'qishga undashning eskirgan shakllaridan voz kechishni talab qiladi. Ta'lim oluvchilarning o'quv mehnatini rag'batlantirishning yangi usullarini izlash, ta'lim va tarbiya sohasida kuch to'plab borayotgan shaxsiy foyda tamoyili yangicha yondashuvlarni belgilab beradi. Tashxislash tizimida baho rag'batlantirish vositasi sifatida bir qator afzalliklarga ega bo'ladi. Birinchi navbatda, baholovchi fikrlar (ballar) qo'llanishi mumkin bo'lgan tashxislash natijalari shaxsning o'z darajasini belgilashga ko'maklashadi, bu esa raqobatbardosh ta'lim sharoitlarini yaratishda muhim omil sanaladi. Ta'lim (shuningdek, nazorat)ning ixtiyoriyligi tamoyili bilan boyitilgan baho o'tmishda ko'plab ta'lim oluvchilar uchun majburiy ta'limning zaruriy vositasidan **shaxsiy** reyting – insonning jamiyatdagi mavqei ko'rsatkichini tadrijiy aniqlash usuliga aylanadi.

Ta'lim olganlikni nazorat qilish va tashxislash tamoyillari.

Pedagogikada ta'lim oluvchilarning ta'lim olganligini tashxislash va nazorat qilish tamoyillarining tizimi ishlab chiqilgan. Ulardan eng muhimlari xolislik (ob'ektivlik), tizimlilik (sistemalilik), ko'rgazmalilik (oshkoralik) sanaladi. **Xolislik (ob'ektivlik)** tashxis testlari (topshiriqlari, savollari), tashxis jarayoni mazmunining ilmiy asoslanganligi, pedagogning barcha ta'lim oluvchilarga do'stona munosabati hamda bilim, malakalarni baholashning aniq ko'rinishda belgilangan mezonlaridan iborat. Amalda tashxisning xolisligi qo'yilgan baholar nazorat metodlari

vositalaridan, tashxis o'tkazgan ta'lim beruvchidan qat'iy nazar hamma vaqt mos kelishini anglatadi.

Tizimlilik (sistemalilik) tamoyilining talabi shundan iboratki, tashxislash nazoratini ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida – bilimlarni boshlang'ich idrok etishdan to amalda qo'llashgacha bo'lgan bosqichlarida olib borish kerak. Tizimlilik barcha ta'lim oluvchilar o'quv muassasasida bo'lgan birinchi kundan boshlab oxirigacha muntazam tashxisga jalb etilishini anglatadi. Ta'lim oluvchining bilimi va egallashi lozim bo'lgan barcha jihatlarni ishonchli tekshirish uchun ta'lim nazoratini tez – tez o'tkazish kerak. Tizimlilik tamoyili tashxis o'tkazishga butun yondashuvni talab etadiki, bunda nazorat, tekshirish, baholashning turli shakllari, metodlari, vositalari uzviy o'zaro bog'liqlikda va birlikda qo'llaniladi, bir maqsadga xizmat qiladi. Bu kabi yondashuv tashxisning ayrim metodlari va vositalarini mutloqlashtirishga yo'l qo'ymaydi.

Ko'rgazmalilik (oshkoralik) tamoyili avvalo barcha ta'lim oluvchilarni aynan bir xil mezonlar bo'yicha ochiq sinovdan o'tkazishni anglatadi. Tashxis jarayonida belgilanadigan har bir ta'lim oluvchi reytingi ko'rgazmali, qiyosiy harakterga ega. Oshkoralik tamoyili, shuningdek, baholarni e'lon qilish va motivatsiyalashni talab etadi. Baho mo'ljal (orientir) bo'lib, ta'lim oluvchilar unga muvofiq o'zlariga qo'yiladigan talablar va pedagogning xolisligi haqida fikr yuritadi.

Ma'lumki, bugun ta'lim tizimida reyting nazoratidan keng foydalanilmoqda. **Reyting** deganda baholash, tartibga keltirish, klassifikatsiyalash (tizimlashtirish, sinflash), bironta hodisani oldindan belgilangan shkala bo'yicha baholash tushiniladi. Reyting nazorati ta'lim oluvchining ma'lum bir fandan reytingini aniqlaydi.

Reyting nazoratida ta'lim oluvchilarning o'quv faoliyatini nazorat qilishning yuqorida keltirilgan metodlari bilan birga test usulidan ham samarali foydalanilmoqda. Test so'rovidan nafaqat ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash, balki 1993 yildan boshlab O'zbekiston Respublikasida abiturentlarni Oliy o'quv yurtlariga tanlov asosida qabul qilish jarayonida ham samarali foydalanib kelinmoqda.

Pedagogik amaliytda testning bir **qator afzalliklari ko'zga tashlanadi**. Ular quyidagilardir:

- nazorat uchun vaqtning kam sarflanishi;
- nazariy va amaliy bilim darajasini ob'ektiv sharoitda aniqlash imkonining mavjudligi;
- bir vaqtning o'zida ko'p sonli ta'lim oluvchilar bilan nazoratni tashkil etish mumkinligi;
- bilim natijalarining ta'lim beruvchi tomonidan qisqa muddatda tekshirilishi;
- barcha ta'lim oluvchilarga bir xil murakkablikdagi savollar berilib, ular uchun bir xil sharoitning yaratilishi.

Ta'lim tizimi uzluksiz ravishda islohatlarni amalga oshirishni talab etadigan sohadir.

Ta'lim tizimida islohatlarni amalga oshirish jarayonida ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish va baholash ham yangicha mazmun kasb etadi. Bu Davlat ta'lim standartlarining ishlab chiqilganligi va yangi o'quv dasturining amaliyotga joriy etilganligi bilan ham izohlanadi. Erkin va mustaqil fikrlovchi shaxsni tarbiyalashga nisbatan yuqori talabning qo'yilganligi, ta'lim oluvchilarni kasbga muvaffaqiyatli yo'llash maqsadida psixologik va pedagogik diagnostika barcha turdagi ta'lim muassasalarida keng ko'lamda amalga oshirilayotganligi kabi holatlar ko'zga tashlanayotgan bir vaqtda ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini eng samarali shakl, metod va vositalar yordamida nazorat qilish hamda baholash muhim ahamiyatga ega.

Ta'lim oluvchilar bilimini baholashning besh balli tizimining eskirganligi va zamon talablariga javob bera olmagan uchun uni reyting tizimi asosida baholash uslubi bilan almashtirish davr taqozosiga aylanadi. Shu o'rinda "qanday sabablarga ko'ra besh balli baholash mezoni o'zini oqlamadi?" degan savolga javob berish o'rinlidir:

Birinchidan, O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" ta'limni demokratik va insonparvarlik tamoyillari asosida rivojlantirishni nazarda tutadi. Besh balli baholash tizimi qattiqqo'llikni. Ta'lim beruvchining mustabidligi

hamda uning ta'lim jarayonida yakka hukmronligini ta'minlashga xizmat qilib kelgan.

Demak, ushbu jarayonda talab va amaldagi holat bir – biriga muvofiq kelmaydi.

Ikkinchidan, baholash mezonini ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasida ixtiloflarni keltirib chiqarishga emas, aksincha, o'zaro faol hamkorlik, bir – birini tushuna olishlari uchun xizmat qilishi lozim.

Uchinchidan, baholash mezonini faqatgina ta'lim oluvchilar tomonidan bilim, ko'nikma va malakalarning o'zlashtirilish darajasini nazorat qilish uchunгина emas, balki ta'limni tashxis etishning faol ko'makchisiga aylanishi zarur.

Baholashning besh balli tizimi birdan beshgacha farqlanuvchi dastlabki baholar qo'yish tartibini bildirib, mohiyati esa baholarning o'rtasidan kelib chiqqan holda choraklik (yillik) o'zlashtirish natijalarini aniqlash tartibidan iborat.

Masalan, ta'lim oluvchi biror o'quv fanidan uchta nazorat ishini 3, 4 va 5 ga bajargan, joriy nazorat bo'yicha ham shunday natijalarni qayt etgan bo'lsa, unga chorak uchun "4" baho qo'yiladi. Bu esa joriy, oraliq va yakuniy nazorat paytida yaxshi tayyorgarlik ko'rgan ta'lim oluvchining ijobiy baholanishi o'rniga, oldingi mavzulardan "5" bahoga berilgan javoblarning mutlaqo inobatga olmasligiga sabab bo'ladi.

Reyting tizimida o'zlashtirish natijasi nazoratning ko'rsatilgan barcha shakllardan o'tish jarayonida to'plangan ballarni qo'shish yo'li bilan aniqlanadi. Har bir nazorat turi uchun 10 balldan taqsimlanganda (o'quv fani uchun 100 ball hisobida) unga 7,5,8,7 ball qo'yilsa, ta'lim oluvchilarning chorak yoki yarim yillik uchun to'plagan ball 27 ballni tashkil etadi, bu esa 55 foizdan kam, shuning uchun u yetarlicha reyting balini to'plamaguncha va barcha nazorat shaklida o'tmaguncha attestatsiya qilinmaydi. Demak, reyting tizimi olingan baho bilan egallangan bilim o'rtasida tafovut kelib chiqishining oldini oladi

O'zluksiz ta'lim islohotlarining muhim bo'g'inlaridan biri, o'quvchining bilim darajasini nazorat qilish tizimi hisoblanadi, chunki bu tizim o'quvchini muvaffaqiyatli ishlashga rag'batlantirish, uning o'quv muvaffaqiyatlarini aks ettirish

bilan bir qatorda o'quvchiga nisbatan qo'llanilishi mumkin bo'lgan ma'lum pedagogik va ma'muriy choralarga ham asos bo'ladi.

An'anaviy bilim sifatini nazorat qiluvchi tizimlar, o'quvchini faol va mustaqil ishlashga tirilmagan bo'lib, rag'batlantiruvchi (motivatsiya) ko'rsatkich sifatida yetarli darajada samarali emas. Ushbu holat reyting tizimini o'quvchilarda doimo maqsadga tirilgan o'quv-ijodiy faoliyatini rag'batlantiruvchi tomonga takomillashtirish zarurligini taqazo etadi. Shu bois Surxondaryo viloyati Qumqo'rg'on tumanidagi 3-umumiy o'rta ta'lim maktabida o'quvchilar bilimini nazorat qiluvchi meyyoriy reyting tizimi ishlab chiqildi. Ushbu reyting tizimi ta'lim-tarbiya jarayonida yangi pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish, o'quvchilarga bu borada keng imkoniyat va qulayliklar yaratib berayotganligi o'quvchilar bilim samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bunda, ayniqsa umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilarning ish yuklamasini bajarishi bo'yicha hisobotlarning ayniqsa soddalashtirilgani katta ahamiyat kasb etmoqda. O'qituvchilar faoliyatining samarali va mazmunli tashkil etishini ta'minlash va o'quvchilar bilan ko'proq amaliy ishlashlariga imkoniyat yaratish uchun o'quvchilar bilimini baholashning yangi takomillashtirilgan tizimini ishlab chiqilgani ham e'tiborlidir.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarining bilimlari sifatini nazorat qilishning 5 ballik reyting tizimi ta'lim jarayoniga joriy etildi. Ushbu tizim umumta'lim maktablarida hayotga qanday joriy etildi? Baholash tizimi qanday soddalashtirildi? Ta'lim sifat mazmunining yuqori bosqichlarga ko'tarishda qanday ahamiyat kasb etmoqda? Baholashning afzalligi nimada?

Ushbu savollarga javobni 3-umumiy o'rta ta'lim maktabida besh ballik yangi reyting tizimi bo'yicha qanday ishlar olib borilayotganligini misol tariqasida keltiramiz.

Maktabning barcha fan kabinetlarida imkoniyatlar maxsus plakatlarda joylashtirilgan. Har bir o'quvchi uchun maxsus plakatda rangli doira (jeton) to'planadigan konvertchalar joylashtirilgan. Bu o'qituvchining ishini osonlashtiradi.

Masalan:

O'quvchi Rashidov 1-imkoniyatdan foydalangan bo'lsa, demak u qizil rangdagi doiracha (jeton)ga ega bo'lgan bo'ladi. O'qituvchi qizil doirachani (jeton) Rashidovning konvertchasiga joylashtiradi va h.k.

Izoh:

Har bir maktab doiracha (jetonlar) o'rniga o'ziga xos boshqa masalan, yulduzcha, to'rtburchakli kubik va boshqa elementlardan foydalanishi mumkin. Albatta, dars jarayonida ishlatish qulay bo'lishi kerak.

Maktabda o'quvchilarning bilimlari sifatini nazorat qilishning bunday reyting tizimi o'quvchilar uchun, ota-onalar uchun ixcham tushunarli bo'lib ularning bilimlari sifatini baholashda haqqoniylik, oshkoralik, odilonaligi bilan ta'lim va tarbiya sifatini oshirishda samara bermoqda.

Maktabda o'quvchilarning bilimlarini sifati nazorat qilishning yangi reyting tizimi uslubiy birlashmalarda o'rganib chiqilib, ota-onalar yig'ilishlarida tushuntirish ishlari olib borildi. Har bir o'qituvchi mazkur baholash tizimini puxta o'zlashtirib, darslarda qo'llab, bilim samaradorligining yuqori bosqichlarga ko'tarilishiga erishmoqda. Shu bilan birga darslarni zamon talablari asosida innovatsion pedagogik texnologiyalar va axborot – kommunikatsiya vositalari yordamida tashkil etib, ularda o'quvchilarning qiziqishlari, qobiliyatlariga mos usullardan foydalanayaptilar. Eng asosiysi o'quvchilarimiz ham, ota – onalari-miz ham yangi besh ballik reyting tizimining mazmun mohiyatini tushundilar. 1 ball, 2 ball ham rag'batlantiruvchi ballar bo'lishi mumkinligini tushunganlaridan so'ng o'quvchilarning o'quv jarayoniga bo'lgan munosabati tubdan o'zgardi. Ta'lim sifati maktabimizda borgan sari yaxshilanib borilmoqda. Joriy etilgan bunday baholash tizimi o'qituvchi va

o'quvchilar uchun juda qulaylik tug'dirmoqda. Bunda o'quvchi dars jarayonida 5 ballni to'plash uchun faol ishtirokchiga aylandi.

Dastlab maktab Pedagogika kengashida ushbu masala ko'rib chiqilib o'zimizning sharoit va muhitimizga moslash uchun bir necha oy maktabda ayrim sinflarga sinab ko'rildi. Baholashning 5 ballik reyting tizimi loyihasi maktab sharoitiga mos qilib hisobga olinadi. (4,5 o'zgaruvchan imkoniyatlar uchun bir hil rangdagi, ya'ni ko'k doirachalar berilishining sababi, ular har darsda imkoniyatlar turi o'zgarishi mumkin).

Masalan: navbatdagi darsda 4 - imkoniyat turi o'quvchining tashqi qiyofasining maktab o'quvchilar kiyimiga mos kelishi bo'lsa, 5-imkoniyat turi o'quvchining o'tilgan mavzular yuzasidan qo'shimcha savollarga hozirjavoblari bo'lishi mumkin va h.k.

Shunday qilib, javob berayotgan o'quvchi 5 imkoniyatdan to'laqonli foydalansa, demak u 5 ballga ega bo'ladi, agarda qaysidir imkoniyatdan foydalana olmasa ballar soni kamayib boraveradi.

Shuni takidlab o'tishimiz kerakki xar bir to'plagan ballari rag'batlantiruvchi ballar hisoblanib chorak va yil so'nggida yig'ilgan ballar jamlanib

55-76	ball uchun	3 baho
76-85	ball uchun	4 baho
85-100	ball uchun	5 baho qo'yiladi.

Eslatma: Joriy so'rovlar uchun ball qo'yiladi.

Chorak yakunida, yil yakunida baho qo'yiladi.

Agarda o'quvchi joriy hafta davomida 1 soat ham sababsiz dars qoldirmagan bo'lsa, demak unga ko'k rangdagi 1dona doiracha 1 ball sifatida beriladi. 5-imkoniyatimiz ham o'o'zgaruvchan imkoniyat hisoblanib bugungi darsda tanlab olingan va e'lon qilingan imkoniyat ya'ni, doskaga chiqarilgan o'quvchi qanchalik darajada o'quv anjomlari (darslik, daftar, kundalik daftar, ruchka, qalam va hk.) bilan qurollanganligi uchun 1 ball beriladi. Agarda mavjud bo'lsa, anjomlarning axfoli, saqlanish holati ham keng jamoatchilik, ota-onalar, o'quvchilar, keksa pedagoglar

taklif va fikrlari inobatga olinib, yana Pedagogika kengashida taklif va fikrlar bilan to'ldirilib maktab bo'yicha 5-9 sinflar uchun baholashning yangi besh ballik reyting tizimi ishlab chiqildi.

Baholashning afzalliklari bo'yicha qator imkoniyatlarning (mahalliy sharoitni inobatga olib) 15 tasi Pedagogik kengash a'zolari tomonidan maqullandi. O'quv jarayoniga tadbiq etish uchun maktab direktorning buyrug'i asosida ruxsat etildi.

Shuni alohida ko'rsatib o'tishimiz kerak-ki 5 ta imkoniyatlarni ikkiga bo'ldik 1,2,3 imkoniyatlar majburiy imkoniyatlardir, ya'ni barcha fanlardan kunlik majburiy imkoniyatlar hisoblanadi. 4, 5 imkoniyatlar o'zgaruvchan imkoniyatlar hisoblanib fan o'qutuvchisi tomonidan har 2,3 soatda boshqa imkoniyat turlari bilan almashtirilib turilishi mumkin. O'qituvchiga ishlash oson bo'lishi uchun har bir sinfda ma'lum miqdorda 4 xil rangdagi jitonlar (doira shaklida) tashkil etilgan. Agar o'quvchi uyga berilgan vazifaga puxta tayyorgarlik ko'rib kelib javob bersa unga 1 ball qo'yilib 1 ta qizil rangdagi doiracha beriladi.

Agar o'quvchi o'qituvchi darsda tushuntirgan yangi mavzu bo'yicha yetarlicha tushunchaga ega bo'lib, shu mavzu bo'yicha faollik ko'rsatsa yana 1 ballga ega bo'lib unga sariq rangdagi doiracha beriladi. Doscaga chaqirilgan o'quvchi albatta o'zi bilan uyda yozma ravishda bajarib kelgan masala, mashq yoki konspektlarini taqdim etishi kerak. Taqdim etilgan yozma mashq misol yoki konspektlarning mazmuni va natijalari hisobga olinib 1 ball beriladi, endigi safar unga yashil rangdagi doirachalar beriladi. Shunday qilib o'quvchi majburiy imkoniyatlardan to'laqonli foydalanib 3 ballga ega bo'ldi. Endi navbat o'zgaruvchan imkoniyatlarga. O'zgaruvchi imkoniyatlarimizdan birinchisi doscaga chiqarilgan o'quvchining haftalik davomati qanday bo'lgan.

Masalan:

1-imkoniyat : Uyga vazifaga qanchalik darajada tayyorgarlik ko'rgan.

1-ball

2-imkoniyat: Yangi mavzu ustida qanchalik darajada ishlay oldi.

1-ball

3-imkoniyat : Konspektning mavjudligi va uning mazmuni uyga barilgan mashqlarning bajarilganligi (aniq fanlardan, fan o'qituvchisi o'zi begilaydi).

1-ball

4-imkoniyat : O'quvchining davomati.

1-ball

5-imkoniyat : O'quvchining o'quv anjomlari mavjudligi va saqlanishi.

1-ball

- Dars jarayonining asosiy ishtirokchisi bo'lgan o'quvchilarning bilim olish qobiliyatlarini aniqlashda ularning o'quv jarayoniga faol ishtirok etishlarida ushbu reyting tizimining ahamiyati katta bo'lmoqda. Ushbu reyting tizimida nafaqat o'quvchining uyga vazifaga qanchalik tayyorgarlik ko'rib kelganligiga yoki uning mavzuni qanchalik darajada o'zlashtirilganligiga, darsdagi faol-ligi ballar qo'yilibgina qolmay o'quvchilarning qanchalik dara-jada o'quv anjomlari bilan ta'minlanganligi , ularning saqlanishi, mavjudligi, o'quvchilarning tashqi qiyofasi, davomati, darsga kechikib kelishi, ularning o'rtoqlari bilan munosabatla-riga ham ballar qo'yilishi, o'quvchilarimizning o'quv jarayonla-riga mas'ulyat va faol ishtiitrok etishi ta'minlanmoqda.

Baholash ta'lim-tarbiya samaradorgligini aniqlash bo'lib, o'quvchi: izohli baholash, o'z-o'zini baholash, munosabatlarini baholash, hamkorlikda baholash kabi xususiyatlarga ko'ra rag'batlantirilmoqda. Shu o'rinda o'z-o'zini baholash

usulidan ham foydalanilmoqda. Bu o'zining ijobiy samarasini bermoqda. Shunday ekan o'quvchi o'zini nazorat qilib, boshqarib boradi, vaqtdan unumli foydalanadi.

Har darsda beshta imkoniyatlar baholash afzalliklari ro'yxatidan tanlab olinadi. Har bir imtiyozdan to'laonli foydalangan o'quvchi har bir imkoniyatdan 1 ball olishga ega bo'ladi, demak o'quvchi 5 imkoniyatdan foydalana olishga erishsa u 5 ballga ega bo'ladi.

Darsning tarkibiy qismida o'qituvchi ko'tarinki ijodiy muhit yaratish kerak. O'quvchilarni darsda faol ishtirok etishga jalb qilish va albatta ularni baholashda bugungi darsda qo'llaniladigan imkonitlar turlarini e'lon qilishi kerak.

Umumiy o'rta ta'lim reyting tizimi to'g'risidagi Nizomda "O'quvchilar bilim darajasi sifatini nazorat qilishning reyting tizimini joriy etishning asosiy maqsadi nazoratning har xil turlari va shakllaridan foydalanish yo'li bilan umumiy o'rta ta'lim davlat ta'lim standartlari talablari bajarilishini ta'minlash, ta'lim samaradorligini oshirish hamda o'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishdan iborat"¹, deb ko'rsatiladi.

O'zbekiston va ixtisoslik bo'yicha ta'lim standartlarida o'quvchilar o'zlashtirish bilimi, ko'nikma va malakalariga ega bo'lishi uchun zarur bo'lgan eng minimal talablari berilgan.

O'zbekiston va boshqa xorijiy davlatlar o'quv muassasalarining tajribasi o'qish va o'quv jarayonining xilma-xil boshqa ko'rsatkichlarini baholashda va unga obyektiv yondoshishda baholashning reyting tizimi eng zamonaviy usul ekanligini ko'rsatmoqda. Chunki, hozirgi kunda ko'p o'qituvchilar o'quvchilarning o'quv fanlari bo'yicha o'zlashtirish darajasini belgilash, ya'ni aniqlashda ma'lum darajada xatoliklarga yo'l qo'yib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasida "Ta'lim to'g'risida"gi, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi to'g'risida"gi Qonunlarni qabul qilinishi ta'lim borasida olib borilayotgan tub islohotlarni amalga oshirishga huquqiy asos yaratdi.

¹ ¹ UO'T muassasalarida o'quvchilar bilim darachasini nazorat qilishning reyting tizimi to'g'risida muvaffaq nizom G'G"Xalq ta'limi", 2000, 4-son, 10-23-b.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini 1998-yil 13-maydagi "O'zbekiston Respublikasida O'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limini tashkil etish chora tadbirlar to'g'risida"gi 204-sonli Qarorining 7-bandiga asosan "Akademik letsiylar va kasb-hunar kollejlari o'quvchilarni bilim saviyasi, ko'nikma va malakalarining nazorat qilishning reyting tizimi to'g'risida"gi Nizomni ishlab chiqish hamda joylarda joriy qilish, akademik letsiylar va kasb-hunar kollejlarida ta'lim-tarbiya oluvchilarning bilimini haqqoniy baholash, bilim va kasbiy ko'nikmalar olishga jonko'yarlik hissini o'yg'otish, o'quvchilarga o'qishga intilish, o'zaro bellashish muhitini shakllantirish zarurligi ko'rsatilgan va bu Nizom ishlab chiqilib, hayotga tadbiq etildi. Xuddi shunday Nizom umumiy o'rta maktab o'quvchilarining bilimini baholash uchun ham joriy etildi.

Reyting deganda-baholash tartibga keltirish, klasifikasiyalash, bironta hodisani oldindan belgilangan shkala bo'yicha baholash tushuniladi. Reyting yordamida psixologik obyektlarni ular uchun umumiy bo'lgan xususiyatlarning yorqin darajasiga qarab (ekspert baholash) dastlabki klasifikasiyalash amalgam oshiriladi. Shkalalsh - aniq jarayonlarni raqamlar tizimi yordamida modellashtiradi. Ularning turli uslublari. Tavsiflari qay bir miqdoriy o'zgaruvchilarga turlicha aylantirish uslublaridan iborat.

Reyting – inglizcha so'z bo'lib, baholash individual koeffitsiyent ma'nolarini anglatadi. O'quvchilar bilim sifatini baholashning o'quv jarayoni va ta'lim natijalarini baholashga bir xil yagona yondashuvni ta'minlaydigan ko'rsatma va qoidalar majmuidir.

Reyting tizimini qo'llashning maqsadi va vazifalari qo'yidagi natijalarga erishish uchun sharoit yaratish hisoblanadi:

- Talabalar oily ta'limning davlat ta'lim standartlarida belgilangan darajada bilim va malakalarni egallashlariga erishish;
- Talabalar bilim sifatini baholashda muntazamlik, izchillik va obyektivlikni ta'minlash;

- Talabalarning o'quv-biluv harakatini faollashtirish, o'qish o'rganishga ijobiy motiv hosil qilish, muntazam ravishda mustaqil ishlashlari va musobaqalashtirishga erishish;
- Har bir talabaning o'quv sohasida egallagan o'rnini aniqlab, yutuqlari uchun rag'batlantirish;
- Ta'lim natijalarini taqqoslashga imkon yaratish va boshqalar.

Reyting usulida baholash tizimi qo'yidagi asosiy talablarga javob berishi kerak:

- Uzlüksiz ta'lim tizimining har bir turi bosqichining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish;
- Ko'p balli shkalani qo'llash;
- O'qituvchi qo'yadigan baholar murakkab matematik hisob-kitoblar bilan bog'liq bo'masligi lozim.

Baholar (ballar) o'quv yurtida qabul qilingan, qo'llanib kelayotgan mezonlarga binoan qo'yib borilishi kerak:

- Baholash natijalari talabalar (o'quvchilar), ota-onalar, pedagoglar tushunishi uchun qo'lay, guruh jurnalidan bilib olinadigan bo'lishi lozim. Baho (reyting) ballarini hisoblash, yakuniy ballarni chiqarish tartibi iloji boricha sodda bo'lishi, ballarni nazorat turlari va shakllari bo'yicha taqsimlab hisoblashni talab etmasligi kerak;
- Har bir ta'lim muassasasida o'quv (uslubiyot) bo'limi vazirlik ko'rsatmasiga binoan yoki o'zi mustaqil barcha og'zaki, yozma, test nazoratlari (baholashlar)ning minimal miqdorini belgilaydi va shu asosda yakuniy baho chiqariladi;
- Uzlüksiz ta'lim tizimining har bir bosqichida (turida) o'quv yurtlari reyting (baholash) natijalari ta'lim natijalarini taqqoslashga imkon berishi kerak.

Hozirgi kunda uzluksiz ta'limning umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb hunar ta'limini va oliy ta'lim bosqichlarida o'quvchilar bilimini reyting tizimida baholanadi. Baholashning bunday shakli o'quvchilarni butun o'qish davomida o'z bilimlarini oshirish uchun muntazam ishlashni hamda o'z ijodiy faoliyatini takomillashtirishni rag'batlantirish g'oyasiga asoslanadi.

Bilimlarni baholashda reyting nazorat tizimiga o'tish orqali qator vazifalar hal etiladi. Jumladan:

- O'quvchi talaba bilimning sifat ko'rsatkichlarini haqqoniy, aniq va adolatli ballar bilan baholash;
- O'quvchi talabaning o'zlashtirishini doimiy nazoratga olish bilan ularning o'z ustida butun o'quv yili davomida faol ishlashni jonlashtirish;
- O'quvchi talabalar mustaqil ishlarining samaradorligini oshirish;
- Reyting nazoratida EHMli va EHMsiz testlardan foydalanish;
- Ko'plab kamchiliklarga ega bo'lgan mavjud sinov, imtihon sessiyalaridan voz kechish.

Reyting nazorat tizimining asosida o'quv rejasiga kiritilgan har bir fan bo'yicha talaba o'zlashtirishning sifat ko'rsatkichlarini ballar bilan baholash yotadi.

Reyting tizimida testing o'rni qanday va uning qanday afzalliklari bor?

Ta'lim natijalarini baholashda reyting tizimining test usuli keyingi paytlarda iste'molda keng foydalanilmoqda.

Test – biror bir faoliyatni bajarish uchun ma'lum darajadagi bilimni egallashga qaratilgan topshiriqdir. Test to'g'ri bajarilganligini o'lchash va baholash maqsadida har bir testga ekspert metodi yordamida etolon ishlab chiqiladi.

Umuman olganda test so'zi inglizchadan olingan bo'lib, u sinov, tekshirish, tadqiqot ma'nolarini bildirib "Sinalayotgan shaxsning psixo xususiyatlarini, shuningdek, intellektual rivoji, qobiliyati va malakasini tekshirishda qo'llaniladigan standart mashqlar" demakdir. Pedagogik va uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish natijasida didaktik testlar quyidagi ikki guruhga ajratiladi:

- nazariy bilimlarni nazorat qiluvchi, malaka va qobiliyatlarni tekshiruvchi o'zlashtirish testlari;
- real o'quv imkoniyatlari bo'yicha (YU.Babanskiy) diagnostika testlari hamda umumiy va maxsus (masalan, mikro yoki makro iqtisodiyot fani va boshqa fanlar bo'yicha) o'qitish testlari.

Testlar tipologiyasi asosida topshiriqlarni tanlash, ularning strukturaviy o'zaro aloqadorligi va ta'riflari quyidagi omillarga bog'liqdir.

Testlarning fanlararo qo'llanish sohasi.

- a) oraliq nazorat testlarida mavzular, boblar bo'yicha bilim va o'zlashtirish elementlarini tekshirish;
- b) ko'p mavzular bo'yicha fanlarning bir – biriga bog'liqligini hisobga olgan holda bilim va o'zlashtirishning chegaraviy nazoratini hisobga olish;
- g) butun kurs bo'yicha bilimlarni nazorat qilish (test asosida fanlararo turkum testlarni ham yaratish mumkin).

Bu hollarning har birida fan topshiriqlarining quyidagi savollari har xil qo'yiladi:

marketing – moliya;

menejment;

solliqlar kabi integrativ bilimlar va h.k.

Reyting nazoratida test ham samarali qo'llaniladi. Test deganda – aniq vazifani takomillashganligi darajasini aniqlashda, sifat va miqdoriy o'lchamlarda belgilash imkonini beradigan, faollikning biron shaklini qiziqtiruvchi biron aniq topshiriq shaklidagi sinov quroli tushuniladi.

Testning afzalligi qo'yidagicha baholanadi:

- Nazorat uchun kam vaqt sarflanadi;
- Nazariy va amaliy bilimlar darajasini obyektiv sharoitda aniqlash imkoniyatini beradi;
- Ko'p sonli talabalar bilan bir vaqtning o'zida nazorat olib borish mumkin;
- Bilim natijalari o'qituvchi tomonidan tezkorlik bilan tekshiriladi;
- Barcha talabalarga bir xil qiyinchilikdagi savollar berilib, bir xil sharoitlar yaratiladi.

Ayrim hollarda tavsiya etilgan testlarni 100 foiz to'g'ri bajarish talab etiladi.

Yangi mavzuni o'tishdan avval ta'lim oluvchining shu mavzuni o'rganishga tayyorligi hamda emotsional va psixomotor holatini aniqlashda, shuningdek, ularni o'qitish uchun guruhlashda mezonga ko'ra o'tkaziladigan testlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Standartlashtirilgan testlar ma'lum standart talablari qo'yilgan dastur asosida tuzilib, ta'lim oluvchining bilim, ko'nikma va malakasini aniqlashga mo'ljallanadi. Ularning erishilgan darajani, qobiliyatlarni (qiziqishlarni ham) aniqlovchi hamda tashxislovchi turlari mavjud.

Ta'lim beruvchilar ko'proq erishilgan darajani va qobiliyatlarni aniqlovchi testlar bilan ishlaydi.

Erishilgan darajani aniqlovchi testlar ta'lim oluvchi ma'lum sohada o'zlashtirgan bilimlar miqdorini o'lchaydigan standartlashtirilgan testlardir. Bu kabi testlarni butun guruhga yoki individual ravishda ishlatish, natijalarni hisoblashda turlicha ball tizimi qo'llanilishi mumkin.

Nazorat jarayonini faolashtirish, kam vaqt ichida ko'p sonli talabalarni nazorat qilish uchun bir qancha ratsional uslublar, jumladan, texnik vositalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Pedagogik test vositasida baholashning yaxshi tomonlari:

- Yaxshi tuzilgan pedagogik test talabaning bilim o'zgartirish sifati va darajasini aniq o'lchash, obyektiv baholash instrument bo'lib, uning natijasi nazorat o'tkazuvchi baho qo'yuvchi odamga bog'liq bo'lmaydi;
- Pedagogik test fan dasturi bo'yicha o'quv material mazmunini to'liq qamrab olish mumkin, ta'lim natijasini test usulida o'lchaganda hamma talabalarga nisbatan bir xil oldindan belgilangan shkalaga asosan baho qo'yiladi;
- Test yo'li bilan baholashda ta'limning texnik vositalarini ishlatish qo'lay bu usul ma'lum o'quv materialni yoki butun bir fanni, nisbatan oz vaqt kam kuch sarflab, hamma talabalarning bilimini nazorat qilishga imkon beradi;
- Pedagogik test usulida baholashning kompyuter vositasida avtomatlashtirish mumkin.

Pedagogik test usuli ham nuqsonlardan holi emas:

- Test nazoratining ko'p shakllari oquvchini og'zaki va yozma javoblarni mustaqil ifodalash imkoniyatidan mahrum etadi;

- O'quvchining ruhiy kechinmalari ham o'qituvchi oldida erkin javob berayotgandagidek namoyon bo'lmaydi, bilimdonligi, shaxsning o'zigagina xos xususiyatlarini ko'rsatish imkoniyati yo'q;
- Imtihon topshiruvchi to'g'ri deb hisoblagan javobni tanlashgina mumkin, o'z javoblarini bera olmaydi.

Sifatli tuzilgan pedagogik testlar o'quvchining bilim egalashda faolligini oshiradi va aksincha, yomon tuzilgan testlar o'quv jarayoniga salbiy ta'sir etishi mumkin. Xullas, pedagogik testlarni to'g'ri va o'rinli qo'llash o'quv jarayoni hamda uning natijalariga katta ta'sir etadi. O'qitish sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Pedagogik test talabalar bilimini obyektiv baholash usuli.

Pedagogik texnologoyaning muhim belgilaridan biri – ta'limning maqsadini real va diagnostik belgilash hamda talabaning bilim o'zlashtirishni obyektiv baholashdir. Pedagogik testlar talabaning bilim o'zlashtirish darajasini aniqlash va obyektiv baholash instrumenti (vositasi usuli) bo'la oladi. Pedagogik testlar talabaning bilim olish jarayonlarini joriy, oraliq, yakuniy nazorat qilish va baholash qo'llaniladi.

Test tuzish izchilligi qo'yidagicha bo'ladi, avvalo, mavzu "bo'lim, predmet mazmunini tashkil etadigan o'quv elementlari (o'quv-biluv vazifalari, topshiriqlari), ya'ni test vazifalari miqdorini belgilash lozim.

Ikkinchidan, ta'limning umumiy va xususiy oydinlashtirilgan maqsadlarini aniqlash kerak.

Uchinchidan, mavzuning (predmetning) xususiyatiga binoan testning o'ziga xos xususiyatini aniqlash maqsadga muvofiq.

To'rtinchidan, test vazifasi (savoli, topshirig'i)ni ishlab chiqish, testni tuzish kerak.

Beshinchidan, tuzilgan testni ekspertizadan o'tkazish lozim.

Oltinchidan, ekspertizadan test vazifasini tajribada sinovdan o'tkazish kerak.

Yettinchidan, test sifati ko'rsatkichlarini aniqlash talab etiladi.

Test tuzishda bunday izchillikka rioya qilishning sabablari bor, albatta. Avvalo, test vazifalari miqdorini aniqlash lozim, chunki u testda nazarda tutilgan maqsad, o'quv

predmeti mavzuga ajratilgan soatlar miqdori, test topshiriqlari soniga, vaqt va boshqalarga bog'liq bo'ladi. So'ngra nazorat etiladigan o'quv predmetning umumiy va xususiy maqsadlarini aniqlash, shundan keyin testning xususiyatini aniqlash talab etiladi. Testni ekspertizadan o'tkazish undagi ayrim kamchiliklarni bartaraf etishga imkon yaratadi. Testni tajribada sinab ko'rish, uning sifatini aniqlashga, test topshiriqlarini talabalar qanday idrok etishi, tushunishi bilan bog'liq nuqsonlarni bilib olishga imkon tug'diradi. Shundan keyingina testni mas'uliyatli vaziyatlarda ishlatish yaxshi natija beradi.

1. Talabalar bilimini baholash o'qituvchi oldida "nimani baholash kerak", degan savol ko'ndalang turadi. Pedagogik texnologiya bu savolga "Predmetni o'qitish va o'rganish maqsadi va vazifalariga erishish darajasini" degan savolni beradi. Bunda umumiy maqsadni o'qituvchi faoliyati bilan bog'lash (o'rganish, tushuntirish, aytib berish, namoyish etish kabilar), vazifalarning esa talabalar o'quv-biluv faoliyati, ya'ni o'quv vazifasi bilan bog'lab ifodalash lozim. Chunki o'quv vazifasi (topshirig'i) talaba ilgari bilmagan narsasini shu mashg'ulotda bilib olish yoki bajara olishi kerak bo'lgan o'quv elementidir.

2. Talaba oldiga qo'yiladigan o'quv-biluv vazifasi ta'limning natijasi bo'ladi, demak tekshiriladigan, baholanadigan narsa, bu ta'limning natijasi, ya'ni talaba bilib o'zlashtirib olgan o'quv vazifadir.

3. Test tuzish uchun avval o'quv-biluv vazifasini aniq, ochiq-oydin ifodalash zarur. O'quv-biluv vazifalarni aniqroq ifodalash, oydinlashtirish uchun qo'yidagilarga amal qilish talab etiladi:

- mavzuning har bir muhim masalasi bo'yicha o'quv biluv vazifalarini ifodalash;
- har bir o'quv biluv vazifasini tartib raqami bilan belgilash;
- har bir o'quv biluv vazifasini "sanab ko'rsating, tanlang, belgilang, hisoblab chiqing" fe'llari vositasida ifodalash. Har bir vazifa ta'limning aynan bir natijasini nazarda tutsin (bir savolga ikki, uch xil javob berish mumkin bo'lmasin).

Har bir vazifani o'zlashtirish natijasini va darajasini, ya'ni maqsadga erishilganligini o'lchash, baholash mumkin bo'lsin.

O'quv-biluv vazifalari biror mavzu, bo'lim yoki predmetni o'rgatib bo'lgach, talabaning bilim va ko'nikmalarini obyektiv baholashga (og'zaki, yozma, reyting yoki test usulida) imkon yaratish lozim.

O'quv-biluv vazifalari (oydinlashtirilgan maqsadlar) ni aniqlab ifodalagach, o'qituvchi ta'lim natijasini tekshirish uchun test nazorati vazifalarini tuzadi. Nazorat vazifalari og'zaki so'rash, yozma ish olish yoki test o'tkazish uchun mavzuning mazmunini yoritadigan savollar, vazifalar, topshiriqlardan iborat bo'ladi.

O'quv-biluv vazifalarini ifodalash uchun fe'l shaklini to'g'ri tanlash muhim, chunki u talaba shu o'quv vazifasini o'zlashtirgach bajara oladigan harakatni bildirishi zarur. Masalan, og'zaki va yozma yozma nutq sohasida o'quv vazifalarini ifodalash uchun: gapirib bering, yozing xulosa qiling, o'qing, bo'g'inga ajrating kabi.

Ta'limda kutiladigan natija o'quv-biluv vazifasi shaklida ifodalangan bo'lsa, uni pedagogik testga aylantirish osonlashadi va u o'z navbatida, ta'lim natijasiga erishilganligini aniqlash, tekshirishga xizmat qiladi.

Pedagogik testning shakllari test topshirig'ining mazmuniga ko'ra, odatda pedagogik testning to'rt xil shakli ko'proq qo'llaniladi: yopiq test, ochiq test, moslikka va izchillikka oid testlar. Pedagogik testlar boshqa shakllarda: matnli, vaziyatli, zanjirli kabilar ham bo'lishi mumkin.

Yopiq test – test sharti savol yoki vazifa, topshiriq va qisqa javoblardan iborat tuzilib, ko'pincha javoblardan bittasi to'g'ri qolganlari to'g'ri javobga o'xshashroq bo'ladi. Yopiq testda bir necha to'g'ri javob ham bo'lishi mumkin. Yopiq test deb atalishining boisi shundaki, tekshiriluvchi qo'yilgan shartga (savolga) o'z javobini bera olmaydi, u testda keltirilgan javoblardan birini o'zicha to'g'ri deb hisoblanganini tanlashi belgilashi mumkin.

Misol o'quv predmeti bo'yicha test topshiriqlari (pedagogik testlar) soni ko'payishi bilan, talabaning bilimini baholash aniqligi qanday o'zgartiradi?

- a) ortadi;
- b) kamayadi;
- c) o'zgarmaydi;

d) ahamiyati yo‘q.

To‘g‘ri javob: A

Ochiq test – talaba o‘z xoxishiga ko‘ra javob berish imkoniyatini yaratadi.

Ochiq testlar, odatda, bitta asosiy so‘z (yoki so‘zlar) Tushirib qoldirilgan jumladir.

Misol, predmetning belgisini bildirgan so‘zlar deyiladi.

To‘g‘ri javob: sifat.

Moslikka doir testlarning mohiyati shundan iboratki, har bir narsa (hodisa)ning qismlari, xususiyatlari, belgilari o‘ziga mos kelishini aniqlash zarur.

Misol:

I.Bilimni test usulida baholashning kamchiliklari.

II.Bilimni an‘anaviy usulda baholashning nuqsonlari.

A. Imtihon oluvchi talaba bilan muloqot qila olmaydi.

V.Bilimlarning bir qismi tanlab nazorat qilinadi.

D. Baho shkalasi taxminiyligi.

G.Javoblarni imkoniyati cheklangan.

S.O‘qituvchining vaqti ko‘p ketadi.

N. EHMni qo‘llash qiyinligi.

To‘g‘ri javob:I-V,G: II-A,D,S,E,N.

Izchillikka doir pedagogik test topshiriqlari harakatlar, fikr yuritishlarda izchillik mavjudligini aniqlash, tekshirish uchun ishlatiladi.

Misol: Pedagogik testni tuzishda harakatlar izchilligi (ketma-ketligi) to‘g‘riligini aniqlang.

A.Testning xususiyatini aniqlash;

V.Test topshiriqlari miqdorini belgilash;

D.Umumiy va xususiy maqsadlaeni aniqlash;

E.Testni tuzish (ishlab chiqish).

G.Testni sinov-tajibada tekshirib ko‘rish.

S.Testni ekspertizadan o‘tkazish.

N.Test sifati ko‘rsatkichlarini aniqlash.

Javob indeksleri tartib (izchilligi) shaklida bo‘ladi.

To'g'ri javob: V,D,A,E,S,G,N.

O'quv materialni turli darajalarda o'zlashtirishga doir pedagogik testlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, axborotni esda saqlash va va qayta tiklashni tekshirishdan o'zlashtirishning reproduktiv darajasiga, so'ngra mahsuldorlik fikrlash darajalariga o'ta borgan sari nazorat qilinadigan bilimlar hajmi, ularning tizimlilik, muhim joylarini ajrata olish ko'nikmasi, bilimlarni amalga qo'llay olish malakalari orta boradi.

Chet el tajribalari va ko'plab tajribalarning natijasi o'laroq reyting uslubi bugungi kunning "nazorat mezon"¹ deb qabul qilindi. Har bir semestrda fanlardan to'plangan ballar yig'indisi talabanning semestr davomidagi, o'quv yili davomidagi fanlardan to'plagan ballar yig'indisi talabanning kurs reytingini tashkil etadi. Har bir fan bo'yicha o'quvchi talabanning o'zlashtirilishini baholash chorak va semestr davomida muntazam ravishda olib boriladi va reyting tizimida baholashning uchta turi qo'llaniladi:

Joriy nazorat ;

Oraliq nazorat;

Yakuniy nazorat.

Joriy nazorat – talabanning o'quv materialini izchil o'zlashtirib borayotganidan xabardor qilib turadi, uning bilim egallashdagi intilishlari ma'qullanib boriladi, xabardorlik ta'limda yo'l qo'yilgan xatolarni tuzatish va ta'lim maqsadlarini aniqlashga xizmat qiladi. Bu nazorat o'qituvchi tomonidan o'tkazilib, talabanning bilim darajasini, shu fanning har bir mavzusi bo'yicha aniqlab borish ko'zda tutiladi. Bu esa o'quvchining uzluksiz bilim olishini va natijasini mutassil nazorat qilib borishni nazarda tutadi.

Oraliq nazorat – bu mazkur fan bo'yicha bir necha mavzularni o'z ichiga olgan bo'lim yoki qism bo'yicha talabanning bilimini aniqlash. Oraliq nazorat darsdan tashqari vaqtda o'tkaziladi va talabalar o'zlashtirish ko'rsatkichlarini oshirish imkonini beradi

¹ Ibragimov X.I., Sh. Abdullayeva. Pedagogika nazariyasi. Toshkent. 2000. 251-b.

Yakuniy nazorat - bu nazorat semestrlari uchun belgilangan mavzular bo'yicha yozma, og'zaki, tast shaklida o'tkaziladi.

Talabaning fan bo'yicha semestrdagi reyting bahosi joriy, oraliq va yakuniy nazoratlarda to'plagan ballari bo'yicha aniqlanadi.

Har bir fan maksimal reyting bali shu fan uchun o'quv rejasida ajratilgan umumiy dars soatlari miqdoriga teng deb hisoblanadi.

Maksimal ballning 70% miqdori joriy, oraliq nazorat jarayonida, 30% miqdori yakuniy nazoratda to'planishi tavsiya qilinadi.

Semestr davomida mazko'r fan bo'yicha to'plagan ballarga nisbatan talaba bilimi qo'yidagicha baholanadi:

86-100 % a'lo;

71-85% yaxshi;

56-70% qoniqarli;

55% va undan kam foiz qoniqarsiz.

Har bir fan bo'yicha talabaning semestr davomidagi o'zlashtirish ko'rsatkichi 100 ballik tizimda butun sonlar bilan baholanadi. Ushbu 100 ball baholash turlari bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi:

YA,N – 30 ball; JN va ON – 70 ball (fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda 70 ball kafedra tomonidan joriy va oraliq nazoratlariga taqsimlanadi).

Talabaning fan bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichini nazorat qilishda quyidagi namunaviy mezonlar tavsiya etiladi:

86-100 ball uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- xulosa va qaror qabul qilish;
- ijodiy fikrlay olish;
- mustaqil mushohada yurita olish;
- mohiyatini tushunish;
- bilish, aytib berish;
- tasavvurga ega bo'lish.

71 – 85 ball uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- mustaqil mushohada yurita olish;

- olgan bilimlarini amalda qo'llay olish;
- mohiyatini tushunish;
- bilish, aytib berish;
- tasavvurga ega bo'lish.

55 – 70 ball uchun talabanning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- mohiyatini tushunish;
- bilish, aytib berish;
- tasavvurga ega bo'lish.

Quyidagi hollarda talabanning bilim darajasi (qoniqarsiz) 0 – 54 ball bilan baholanishi mumkin:

- aniq tasavvurga ega bo'lmaslik;
- bilmaslik.

Shuningdek, 86 – 100 ball – “a'lo”, 71 – 85 ball – “yaxshi”, 55 – 70 ball – “qoniqarli”, 0 – 54 ball – “qoniqarsiz” baho deb baholanadi.

O'quv pedagogik ishlab chiqarish va bitiruv oldi malakaviy amaliyotlari davrida olingan bilimlar ham reyting ballari bilan baholanadi.

II - bob. Kichik maktab yoshida bahoga munosabat shakllanishining psixologik xususiyatlarini eksperimental tadqiq etish.

2.1. Tadqiqot natijalari tahlili.

Tadqiqotimizning ob'ekti bo'lib kichik maktab yoshidagi o'quvchilar hisoblanadi. Ularning o'qish motivlari tadqiqotimiz predmeti bo'lib, uni o'rganishda: Ko'zatish, suhbat singari ma'lumot yig'ishning asosiy metodlari bilan birga.

O'quvchilarni bilim olishga va bilimlarni o'zlashtirishga yo'nalganligini aniqlash maqsadida Ye.P.Ilinva N.A.Kurdyukoalar tomonidan taklif etilgan «Bilim olishga intilish» metodikasidan:

O'quvchilarni baho olishga yunalganligini aniqlash maqsadida Ye. P. Ilin va N.A.Kurdyukoalar tomonidan taklif etilgan «Baho olishga intilish» kabi metodikalardan foydalandik.

Bizning fikrimizcha, tadqiqotimizda qo'llangan metodikalar tadqiqot farazlarini isbotlashga yetarli darajadagi ma'lumotlarni beradi.

Metodologiyadagi so'nggi yunalishlardan biri metodlar tizimida turli xil sohaga taalluqli metodikalarni qo'llash hisoblanadi. Bu tadqiqot ob'ekti xususida qo'shimcha ma'lumotlarni olishga, ularni tahlil qilishdagi ishonchlilik mezonlarini oshirishga xizmat qiladi. Keyingi paytlarda ijtimoiy fan sohalarida ham kibernetik, matematik, statistik metodlardan foydalanish keng kulamda yo'lga qo'yilgan. Biz ham tadqiqot orqali qo'lga kiritilgan natijalarni tahlil qilishda matematik- statistika metodlariga tayanib ish ko'rdik

O'qitishdagi motivlar muammolarini psixologik tahlil qilishga kirishar ekanmiz, biz tadqiqotda qo'yidagi g'oyani ilgari surishga qaror qildi: bolani mukammal inson bo'lib shakllanishi uchun kichik maktab yoshidanoq unda o'qish haqidagi tasavvurlarni uyg'otish kerak. Kelgusi o'qishda o'z-o'zini boshqara olishi, o'z-o'zini baholay olishi va imkoniyat darajasini anglay bilishi zarur. Pirovardida har tomonlama shakllangan inson vujudga keladi.

Oqituvchining tinimsiz ijodiy faoliyati ta'lim samaradorligini oshiradi. Kichik maktab yoshidanoq o'quvchilar o'z ehtiyojlari haqida muayyan tasavvurga ega bo'lishlari lozim.

Bu vaqtda ehtiyojning yangi-yangi qirralari ochiladi, shu ehtiyojlarni qondirish bilan birga ijobiy tomonga qarab shakllantirish zaruriyati ham paydo bo'ladi. Bu jarayon o'qituvchi hamkorligisiz samarali bo'lmaydi. Albatta, bu hamkorlik o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi ziddiyatni bartaraf etadi.

Tadqiqotimizda qo'yidagi mezonlarga asoslangan holda tajribalar o'tkazish rejalashtirildi.

- a) Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda paydo bo'lgan turli-tuman motivlarni o'qish faoliyati jarayonida anglab yetilganlik darajasini o'rganish:
- b) O'qish faoliyatida yuzaga keladigan muammolarga yechim topishlarida motivlarning o'rni va qiymati, qanday ahamiyatga ega ekanini o'rganish.
- v) Maktabda ham, maktabdan tashqari vaziyatda ham motivlarning o'ziga xos fazilatlaridan maqsadga muvofiq foydalanish.

Bizning izlanishlarimizda kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning o'qish faoliyatida: o'qish, bilim va baho olishga intilish motivlariga, o'yin orqali o'qish faoliyatidagi ijobiy motivlarni shakllantirish xususiyatlariga alohida e'tibor qaratilgan.

Tadqiqot metodlari o'yinga, o'qishga, baho olishga intilish, bilim olishga intilish, ijobiy va salbiy motivlarni o'rganishga qaratiladi.

Tadqiqot predmetini o'rganishga kirishishdan oldin bizlar ustivor tushunchalarning operatsional tavsifiga to'xtalib utsak.

O'qish – o'quvchini o'z bilim, ko'nikma, malaka, va qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan xususiy harakatlari.

O'yin - faqat bolalarga xos olamni anglash va o'z malakalarini takomillashtirish usuli.

Baho deb baholashning ball shaklida berilgan son orqali ko'rsatilgan ulchamga aytiladi. Baholash deb bilim, ko'nikma va malakalarni o'qish dasturida ko'rsatilgan etalon (ko'rsatkich, qolip, o'lchagich)lar bilan solishtirishni aytamiz

Bilim - bu o'quvchilar ongida muayyan tartibda mustahkamlangan, ularning shaxsiy mulkini tashkil etadigan va bundan ular zaruriyatga ko'ra foydalana oladigan faktlar, ma'lumotlar, ilmiy nazariyalar, qonunlar va tushunchalardir.

«Bilimga intilish motivlari» metodidan foydalanishimizdan maqsad qaysi sinflarda bilimga intilish kuchli ekanini, bu farqlar shahar yoki qishloq o'quvchilarida qanday ko'zatilishini aniqlashda edi.

Bu metoddan o'quvchilar ga 12 ta savol beriladi. Har bir savoldan keyin o'quvchilar A yoki B javob variantidan birini tanlashlari kerak. A javob variantlar bolani bilimga intilishini, B javob variantlar esa bilim olishga nisbatan loqayd ekanini ko'rsatadi.

«Baho olishga intilish motivi» metodidan foydalanishimizdan maqsad baho olishga intilish 3 sinfda qanday namoyon bo'lishini aniqlash.

Biz o'z tadqiqotimizda foydalangan ikki metodika: Ye.P.Ilin va N.A.Kurdyukovalar tomonidan taklif etilgan o'quvchilarning bilim olishga va bilimlarni o'zlashtirishganligini aniqlovchi «Bilim olishga intilish» hamda o'quvchilarning baho olishganligini aniqlovchi «Baho olishga intilish» motivlari deb nomlanadi (Metodikalarning to'liq matni ilovada keltirilgan.)

Ma'lumki, bilimlarni o'zlashtirish jarayonini boshqarish muammosi yirik psixologlar P.YA.Galperin, N.F.Talizina tomonidan urganilgan Ular aqliy hatti-harakatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish nazariyasini ishlab chiqdi. Mualliflar hatti-harakatlarni moddiy holda, tashqi nutq yordamida hamda aqliy shaklda namoyon bo'lishini izohlab berdilar. Aqliy hatti-harakatlarning birinchi bosqichi rasm, sxema, diagramma va shartli belgilar tarzida o'z ifodasini topadi.

Ikkinchi bosqich ko'rgazmalardan olgan tasavvurlari to'grisida o'quvchilarning ovoz chiqarib fikr yuritishlaridan iboratdir.

Uchinchi bosqich esa, o'qivchi ongida tasavvur, tushuncha, qonuniyat, xossa, xususiyat, operatsiya va usul tariqasida namoyon bo'ladi. Ana shu bosqichlarni o'quvchilarga tushuntirish orqali ularni o'z-o'zini boshqarishga o'rgatish mumkin .

Bilim olish motivlari o'quvchilar tomonidan ko'p e'tirof etilsada, juda ham kam namoyon bo'ladigan jarayondir. Bu real harakatdagi motivlar farqlidir. Masalan: o'quvchi bo'lajak kasbiga tayyor bo'lish uchun o'qiyman degani bilan kasbning o'zi mavhum bo'lishi mumkin. Yaxshi o'qiydigan o'quvchilarda «real» motivlar «biladigan» motivlariga mos tushadi. Boshlangich sinf o'quvchilarining o'qish

motivlari turlicha bo'ladi. Ba'zilar: «jamiyatga foyda keltirish uchun» desa ba'zilar «madaniyatli bo'lish uchun» deydi. Bunday iboralar tahlili o'qish faoliyati motivlarini maktabga borish, bilim olish, baho olish kabi motivlarga farqlanishini taqozo qiladi.

Navbatdagi metodika kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning bilimga intilishlarini qay darajada kuchli ekanligini aniqlashga yordam beradi.

Sinaluvchilarning «Baho olishga intilish» metodikasi bo'yicha tajribagacha olingan natijalari. (foizda)

«Baho olishga intilish» motivlari bo'yicha esa motivlar manzarasi qo'yidagicha bo'ldi. Maktab o'quvchilarining 13% mazkur motivlar past, 38% - o'rta va 49% yuqori darajada namoyon bo'lar ekan.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar faoliyatini baholash unda o'qishga ijobiy munosabatni shakllantirishda muhim ahamiyatga egadir. Ma'lumki, maktablarda bolalarni og'zaki baholash odat tusiga kirib qolgan, chunki birinchi sinf o'quvchisi ana shu baho ta'sirida o'z faoliyatini kuchaytiradi, ijodiy izlanishga harakat qildilar. O'qituvchining rag'batlantirishi uning uchun eng muhim rol o'ynaydi.

Bu yerda yuqori motivatsiyani «baho» egallaydi. L.I.Bojovich fikricha, boshlang'ich sinf o'quvchilarida baho bu ularga berilgan vazifani bajarishdagi urinishlarga qo'yilgan, baho, lekin bu baho vazifaning to'g'ri, noto'g'riligini belgilamaydi. O'quvchilar qo'yilgan baholar hisobidan kelib chiqib, o'z yutuqlarini baholashadi, olgan bilimlarini ahamiyati unchalik emas, lekin bunday fikr tez orada o'z-o'zidan yo'qolib ketadi. I.P.Ilin fikricha shu yo'qolib ketgan fikr bilan 3-sinfga kelganda tuqnashamiz. 3- sinfga kelib vazifalar murakkablashadi va 3-4 sinfga kelib o'quvchilar og'irlikni his qila boshlaydilar va endi ular a'lochilarni masxara qilishga utadilar. L.I.Bojovichning fikricha, o'qitish o'quvchilar intellektiga emas, balki ularning xotirasiga qaratilganligi uchun shunday holat vujudga keladi. Sinfdan-sinfga o'tgach, o'quvchilarning mustaqilligi oshadi, o'ziga xurmat hissi va erishgan yutuqlarga zaruriyat hislari oshib, o'qish jarayoni ularni qoniqtirmay boshlaydi. Bu sinflarda o'qituvchi roli ham, o'quvchilarning bilim olishga undash ham o'z-o'zidan susayadi. O'qituvchi bu yerda «baho»lar hisobiga o'quvchilarni e'tiborini tortishga

harakat qiladi. Boshlang'ich sinfni bitirishga kelib, qoloq o'quvchilar «jazodan qochish» fikri bilan vaqt o'tkazishadi. Buning natijasida o'uvchilarda ijodiy faoliyat rivojlanmaydi, ma'suliyat shakllanmaydi, sabotlilik, matonatlilik, mexnatsevarlik hislari shakllanmaydi.

O'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini tekshirish uzviy tarzda baholash bilan bog'liqdir. Bahosiz o'quvchilar bilimini tekshirish kam samara beradi. Chunki bolalar o'z ish natijalarini ko'rmaydilar. Shu sababli o'zlarini nazorat qilish pasayib boradi. Maktab hayotining ko'rsatishicha, haqiqatdan ham bir qism bolalar bahoga noxush munosabat bildirsalar, bir qismi bahoga umuman befarq bo'ladilar.

Bolalarda baho ob'ektiv qo'yilmaganda unga nisbatan noto'g'ri munosabat yuzaga keladi. Bolalarga olgan baholarini tushuntirish kerak. Baho qo'yishda o'quvchining yutuq, kamchiliklarini ko'rsatish kerak. E'lon qilingan baho sinf jurnaliga va o'quvchi kundaligiga qo'yiladi. Ba'zan og'zaki baho ham qo'yilishi mumkin. Har holda og'zaki rag'batlantirish katta ahamiyatga ega. Baho qo'yish, asosan, kundalik tekshirish orqali amalga oshiriladi.

190-maktabda o'quvchilar bilan suhbatlashib: nima uchun yaxshi baho olishni istaysan?- degan savolni berganimizda: "O'zimizni xo'rsand qilish uchun" javobini 48% bola, "Ota-onamni xo'rsand qilish uchun" javobini 30%, "Aqlliyoq bo'lish uchun" javobini 22% bola berdi.

"Baholar qo'yilmasligini istarmiding?" degan savol berilganda 40 ta o'quvchidan 38 tasi salbiy fikrni bildirdilar. Qolganlari javob berishni istashmadi. O'quvchilarda motivatsion baholar katta ahamiyatga ega. Tekshiruvlar birinchi va ikkinchi sinf o'quvchilari bahoning rolini yaxshi tushunishlarini, bilim va baho o'rtasidagi bog'liqlikni kamchilik deb tushunib yetmasliklarini ko'rsatadi. Ko'p bolalar baholar ota-ona, o'quvchi yoki o'qituvchini quvontirishi kerak yoki xafa qilishi mumkin deb hisoblaydilar. Hamma bola bahoni qadrini tushunmasa ham, ko'pchiligi uning uchun ishlashadi. Agar baho olish yoki qiziqish uchun misol yechish o'rtasida tanlash imkoni bo'lsa, ko'pchilik baho yo'lini tanlaydi. Baho bolaning jamiyat oldida uning obro'sini ko'tarish mumkin. Shuning uchun ular o'z

xoxishlari bilan emas, o'z mavqeylarini saqlash uvhun ham intiladilar. O'quvchi namunali baho olish uchun harakat qilib, o'z natijasini baholashga erishadi.

Uning fikricha, uning javobi qoniqarli bo'lib, unga qoniqarsiz baho berilgan deb o'ylaydilar. Boshqalari esa o'z omadsizliklariga ko'nikib, ishonchlarini yuqota boradilar va olayotgan baholariga farqsiz bo'lib qoladilar. Shuning uchun kichik maktab yoshidagi o'uvchilar shu baho bilimi va darsga berilgan ko'rsatkich ekanligini tushunishi lozim. Ko'rsatilgan motivatsiya o'qituvchi uchun diqqatga sazovor bo'lganda, o'quvchida egoistlik holatlari yuzaga kelib, yomon tomonga burilishi mumkin. Gruziyaning ko'pgina maktablarida yo'lga qo'yilgan kichik maktab o'quvchilarini baholamaslik tajribasi qiziqarli. 1964 yildan beri o'qish jarayonida kichik maktab yoshidagi o'quvchilar baholanmaydi. Gruzin psixologlarining fikricha, baholashda o'quvchining asosiy motivatsiya xususiyati gavdalanadi. Oquvchi unga qo'yilgan bahodan yuqori baho olishni istaydi, qiziqishi so'nadi. Bunday hol o'qishchiga yomon ta'sir qiladi. Bahosiz o'qitish esa, o'quvchi hayajonini yuqotib, o'qish, bilish motivlarini kuchaytiradi.

Ko'pchilik mutaxassis olimlar kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni baholash salbiy oqibatlariga olib keladi, deb hisoblashoqdalar. Ma'lumki, faqat baho uchun o'qish bilimning ijtimoiy ahamiyatini pasaytirishi mumkin. Shunga ko'ra bilimni tekshirishning boshqa usullarini topish hamda qo'llash hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Kichik maktab yoshida bilim olish va bahoga intilish motivlarining o‘zaro munosabati.

Bizning fikrimizcha, o‘quv faoliyatidagi motivlarni o‘rganishda shaxsga oid treninglar asosida ishlab chiqilgan guruhviy trening metodidan foydalanish yuqori darajadagi samarani beradi.

TRENING - (trening) - inglizcha so‘z bo‘lib, «amaliy ta’lim», «maxsus mashqlar rejimi» degan ma’noni anglatadi. Oqitish faoliyatidagi motivlar bu o‘quvchiga bilimni tushunarli qilib yetkazib berish jarayonida o‘quvchining bilimga nisbatan munosabatlarini uyg‘otishga xizmat qiladigan psixik jarayonlardir.

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning o‘qish faoliyatidagi motivlarni shakllantirish maqsadida biz psixologik trening toifasidagi o‘zaro bog‘liq psixologik mashg‘ulotlar tizimini ishlab chiqdik.

Biz ishlab chiqqan o‘qish faoliyatidagi motivlarni rivojlantirish mashg‘ulotlariga J.Bruner, G.Xekxauzen, L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev, V.G.Aseev, A.K.Markova kabi psixologlarning g‘oyalari asos qilib olindi. Shakllantiruvchi psixologik mashqlarni tanlab olishimizdan asosiy maqsad: kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning tashqi ta’sirlarga beriluvchanligi, psixik xususiyatlarning o‘zgaruvchanligi, shaxsning o‘ziga xos xususiyatlarining shakllanish davrini hisobga olgan holda o‘qish jarayoniga bo‘lgan qiziqishini oshirishdir.

Psixologik mashqlarni qo‘llashdan asosiy maqsad: bolalarda qanday xususiyat shakllanganligidan qa’tiy nazar ularning diqqatini bir joyga to‘plab, berilayotgan predmetga qiziqtirib, bilim olishni, o‘qishga intilishni, o‘yin orqali o‘qishni, ijobiy motivlarni shakllantirishdir.

Psixologik o‘yinlarni tanlashda shakllantiruvchi eksperiment dasturini tuzishda o‘quvchilarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqilgan (1- sinf uchun alohida dastur, 3-sinflar uchun alohida dastur).

O‘quv motivlarini shakllantirish uchun boshlang‘ich sinflarda qo‘yidagi o‘yinlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir:

Diqqat faolligini oshirish va taqsimlashni rivojlantirish maqsadida: «Chapakni eshit», «Tovushlarni eshit», «Alfavit xarflar», «To'rt she'r», «Eshit va bajar», «Se'rli so'z» o'yinlari va h.k.

O'quv jarayonida tafakkur va idrokni rivojlantirish uchun: «O'yinchoqni aniqlash», «Jumla tuz» o'yinlari va h.k.

Tafakkur va nutqni rivojlantirish uchun: «qarama-qarshiliklar», «Topishmoq sur'at», «Topishmoqni o'ylab top», «Qayerda bo'ldik, nimalarni ko'rdik» o'yinlari va h.k.

Oquvchilardagi maktab oldidagi qurquvni yo'qotish uchun: «Ajdarho bilan jang», «Qorong'ulik», «Qo'rquvingni chizib ber», «Ajdar o'z dumini tishlaydi» o'yinlari va h.k.

O'quvchilarning o'quv jarayonidagi qo'zgaluvchanligini susaytirish uchun: «Kim ortidan kim» o'yinlari va h.k.

O'uvchilarda o'quv jarayonida o'z-o'zini boshqarish, o'z-o'zini nazorat qilish, mustaqillik va erkinlikni rivojlantirish maqsadida: «Zerikib, zerikib shunday o'tir», «To'xtab yoki qotib qol», «Ikki xurozcha urishib qolishadi», «Igna va ip», «Ta'qiqlangan raqam», «To'xta», «Ta'qiqlangan harakat», «Koptok o'ynash» o'yinlari va h.k.

3-sinflarning o'quv motivlarini shakllantiruvchi namunaviy dastur qo'yidagicha tuzilsa maqsadga muvofiqdir:

O'QUV faoliyatida assotsiativ tafakkurni rivojlantirish uchun: «Aniqlash» o'yinlari va h.k.

Analiz, sintez va klassifikatsiyalash jarayonini rivojlantirish uchun: «Juft rasmlar», «Ortiqcha o'yinchoq» o'yinlari va h.k.

O'quvchilarda ko'zatuvchanlikni rivojlantirish uchun: «Mana shunday tur», «Soya», «Oyna», «Rassom», «Kim nima qildi», «Razvedkami» o'yinlari va h.k.

O'uvchilarning o'quv faoliyatida qobiliyatlarini mustahkamlash uchun: «Harakatlarni eslab qol», «O'ylash», o'yinlari va h.k.

O'quvchilarni o'quv jarayonida xotiralarini rivojlantirish maqsadida: «Holatingni eslab qol», «O'z joyingni eslab qol», «Buzilgan telefon» o'yinlari va h.k.

O'quv motivlarini shakllantirish maqsadida qo'shimcha ravishda qo'yidagi psixologik o'yinlarni tavsiya qilish mumkin: tafakkur va nutqni rivojlantirish maqsadida «Topib ko'rchi» o'yinidan, maktab oldidagi qurquvni yuqotish maqsadida «Ajdarxo bilan jang» o'yinidan, o'quv jarayonida o'z-o'zini boshqarishni rivojlantirish maqsadida «Boyo'g'li» o'yinidan, o'quv jarayoniga e'tiborlilikni rivojlantirish maqsadida «Komandani eshit» o'yinidan, o'quv jarayoniga diqqatni jamlash maqsadida «Diqqatingizni jamlang» o'yinidan, o'quv jarayonida o'zini erkin tutishni va qobiliyatni bir joyga jamlashni rivojlantirish maqsadida, «Sayohat» o'yinidan, o'quv jarayonida diqqatni bir joyga jamlagan holda o'zini erkin tutishni rivojlantirish maqsadida «Qiziquvchan» o'yinidan, o'quv jarayonida zehn, kuzatuvchanlik va mazmunli xotirani rivojlantirish maqsadida «Narsalarni hisoblash» o'yinidan, Maktab oldidagi qurquvdan xalos etib, maktabga bo'lgan qiziqishni oshirish maqsadida «Maktab» o'yinidan, diqqatni kuchaytirish orqali o'quv faoliyatini rivojlantirish maqsadida «Yozuv mashinkasi» kabi o'yinlar. O'yinlarning to'liq matni ilovada keltirilgan.

Bahoning o'quvchi shaxsiga bo'ladigan ta'sirining jiddiy psixologik tahlili 1935 yili B.G.Ananevning «Pedagogik bahoning psixologiyasi» asarida berilgan. B.G.Ananev fikriga ko'ra, baho o'quv faoliyatidagi ish jarayoniga ham, o'quvchilararo munosabatlarga ham, pedagog va o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlarga ham, o'quv motivlariga ham ulkan ta'sir o'tkazadi. U baho o'quvchining o'z bilimlarining ahvolidan xabardor qiladi deb hisoblaydi .

V.A.Palimirin- (1950) rag'bat va tanbehlarining boshlang'ich sinf o'quvchilarining aqliy faoliyatiga qanday ta'sir ko'rsatishini tadqiq etgan. Uning xulosalariga ko'ra, vazifalarni oson bajarayotgan o'quvchilarni tez-tez rag'batlantirib turilsa ular anchagina beg'am bo'lib qolishar ekan. Bu esa, o'z navbatida, ta'lim samarasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bundan tashqari rag'bat va tanbehlarining samarasi ko'p jihddan bolaning asab tizimi bilan bog'lik ekan.

E.Sh.Sapojnikova (1953) tadqiqotida esa bahoning bolaga bo'lgan ta'sir kuchi nafaqat bahoning o'zi bilan, balki uni qanday taqdim etilishi bilan ham belgilanishi mumkinligini ko'rsatgan.

Bizning pedagogik-psixologik eksperimentimizdan keyingi bilim olish va bahoga intilish motivlari o'rtasidagi munosabatlar esa qo'yidagilar.

Sinaluvchilarning «Bilim olishga intilish» metodikasi buyicha tajribagacha va tajribadan keyingi olingan natijalari.

Maktablarda o'quvchilarining bilim olish motivlari holati. Eksperimental guruhda statistik jihatdan ahamiyatli o'zgarishlar ro'y bergani ko'rinib turibdi.

Bunday ahamiyatli siljishlar qishloq maktablari o'quvchilarining nazorat guruhida ko'zatilmaydi.

Ular o'rtasidagi nisbiy, foizlardagi qiyos quyidagicha: eksperimental guruhda bilim olish motivi past bo'lganlar 5%, o'rtacha- 28% va yuqori - 67%ni tashkil qilsa, nazorat guruhda: bilim olish motivi past bo'lganlar 35%, o'rtacha- 55% va yuqorisi - 10% ni tashkil qildi.

Mazkur holat pedagogik-psixologik eksperiment bilim olish motivlariga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatganligini isbotlamoqda.

Ekspremental guruhda ststistik jihatdan ahamiyatli o'zgarishlar ro'y bergani ko'rinib turibdi: Bunday ahamiyatli siljishlar qishloq maktablari o'quvchilarining nazorat guruhida ko'zatilmaydi: Ular o'rtasidagi nisbiy o'lchamdagi qiyos qo'yidagicha: Ekspremental guruhda baho intilish motivi past bo'lganlar 23 foiz, o'rtacha 57 foiz va yuqorisi 58 foizni tashkil qildi. Ta'kidlash kerakki, o'z oldimizga maqsad qilib qo'ygan vazifalar o'z yechimini topayotganini pedagogik-psixologik eksprimentning pirovard natijalari isbotlab turibdi. Ya'ni ishlab chiqqan dastur bolalarning bilim olishga bo'lgan ehtiyojlarini o'yg'otib mazkur ehtiyojlarni tashqi omillar bilan bog'lamay, ichki ruhiy-ma'naviy zaruriyat darajasigacha olib chiqa olganligidan dalolat beradi. To'g'ri tashkil qilingan o'quv jarayoni – kichik maktab yoshidagi o'quvchining bilimga bo'lgan motivlarini tarkib topishining asosiy shartidir. Ushbu motiv o'zlashtirish bilan bevosita bog'liq. Umuman o'qish ishtiyoqi, muvaffaqiyatga erishish bolaning o'qituvchiga bo'lgan ijobiy munosabati bilan belgilanadi

Amerikalik psixologlar o'quvchilar o'quv faoliyati natijalariga baho ta'sirini, aniqlashga qaror qildilar. Eksperiment maqsadiga ko'ra, bir sinfda o'quvchilar

muayyan vaqt davomida javoblarining aniqligi va to'liqligiga e'tibor qilmay, faqat maqtaldi. Boshqa sinfdan faqat tanqid qilindi, uchinchisida esa biron-bir baho berilmadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, bilish faoliyati maqtalgan sinflarda eng yuqori yutuqlarga erishilgan, eng yomon natija o'quv faoliyati tanqid qilingan sinfdan emas, balki bilish faoliyati sira baholanmagan sinfdan vujudga keldi. O'qituvchining o'qitishga bo'lgan havasi qanchalik ko'p bo'lmasin, bilish faoliyatining ichki motivlari qay darajada shakllangan bo'lmasin, u hamisha tashqi motivlashtirishga, tashqaridan maqtash va qo'llab-quvvatlashga muhtoj bo'ladi. Bola ko'z o'ngida o'qituvchi qanchalik ahamiyatli, obro'li bo'lsa, uning maktabda baholash va baholarda aks etuvchi maqtovlari shunchalik qadrlil va ahamiyatli bo'ladi.

Pedagogik baholash bilimni dastur talablari va ta'lim andozalariga qiyoslab aniqlabgina qolmay, balki o'quvchilar bilim faoliyatini motivlashtiradi va rag'batlantiradi.

Bahoni bekor qilish pedagogik jihatdan ham, psixologik jihatdan ham o'zini oqlamaydi. Bunday qator kamchiliklari bo'lsa, besh ballik baho tizimiga muqobil xil topilganicha yo'q. Shuning uchun, gap uni takomillashtirish, o'quvchilar bilimini baholashda xatoga yo'l qo'ymaslik haqida borishi kerak.

O'qituvchining xatolari

O'quvchilar bilimini baholashda eng jiddiy xatolardan yana biri turli guruhlariga sub'ektiv yondoshishdir. Bu o'qituvchi tomonidan ayni bir javob uchun, ayni bir ish uchun turli o'quvchilarni baholashdagi tofovutlarda aks etadi. Tofovutlar ba'zan ikki ballgacha tushadi. Yillar o'tishi bilan o'qituvchidan o'quvchilar turli guruhlariga nisbatan muayyan tasavvur va unga muvofiq holda munosabat shakllanib boradi. Bu narsa o'zlashtirgan va o'zlashtirmagan o'quvchilarga munosabatda yorqin namoyon bo'ladi. O'qituvchilar bir xil o'quvchilarni (o'zlashtirayotgan) doim maqtaydilar, boshqalarni (o'zlashtirmayotgan) hamisha koyiydilar. Buning ustiga o'zlashtirmayotganlarga, odatda, o'zlashtirgan sinfdoshlariga nisbatan tez-tez va qattiq tanbeh beradilar. Yangilish munosabat yana shunda namoyon bo'ladiki, o'qituvchilar yaxshi o'zlashtiruvchilarga nisbatan

yomon o'zlashtiruvchi o'quvchilarni javob berishga kam taklif etadilar. Javobni o'ylash uchun ularga juda oz vaqt beradilar.

Mana bunday vaziyatga e'tibor qiling. Doska yonida past o'zlashtiradigan o'quvchi javob bermoqda. Ishonchsiz o'rinsiz javob bermoqda. Bunday holatda o'qituvchining munosabati qanday bo'ladi? U o'quvchi gapini shartta bo'lib, unga "ikki" qo'yadi va joyiga o'tqizadi: "Sen yana dars tayyorlamabsan", "Sen hech odam bo'lmaysan", "Senga o'rgatsa ham, o'rgatmasa ham befoyda ekan" deb uni izza qiladi.

Endi boshqa vaziyatni ko'raylik. Doska oldida yaxshi o'zlashtiradigan o'quvchi bugungi darsga tayyorlanmay kelib, ishonchsiz holda javob beryapti. O'qituvchi bunday vaziyatda o'zini qanday tutadi? U o'quvchiga yordam berib, kamchiligini to'ldiradi yoki unga javobni o'ylashi uchun imkon beradi. Ko'rinib turibdiki bu ikki vaziyatda o'qituvchi qarshisidagi yaxshi va yomon o'zlashtiruvchi bola turganiga qarab, o'zini turlicha tutyapti. Har xil bolaga bunday munosabat ilgaritdan vujudga kelgan tasavvurning namoyon bo'lishi hisoblanadi. Keltirilgan misolda subyektiv munosabat namoyon bo'ladi. O'qituvchining bunday munosabati esa maktab bahosining ta'limiy, tarbiyaviy va rag'batlantiruvchi funksiyasini pasytiradi.

Amerikalik pedagog Blumning fikricha, hatto "o'quvchilar nutqi sur'ati ham o'qituvchi bahosiga ta'sir etar ekan" Bu narsani maxsus o'tkazilgan qo'yidagi tadqiqotdan ham bilish mumkin¹. Tabiatshunoslik fanidan o'quvchi qiz bir xil materialni ikki marta gapirib bergan. Avval 16 daqiqada, keyin esa 24 daqiqa davomida. Javoblar vedio tasmasiga yozib olindi. So'nggi 81 nafar o'qituvchi esa sekin aytilgan va tez aytilgan materialni baholashdi. Tez aytib berilgan materialning o'rtacha bahosi 3,38 ball bilan, sekin so'zlab berilgan materialning o'rtacha bahosi 2,5 ball bilan baholandi.

Tadqiqot mualliflarning xulosasi shuki, ko'pgina o'qituvchilar uchun nutqning tez sur'ati chuqur bilim va katta qobiliyatdan darak berar ekan.

¹ Mavlanova R., To'rayeva O. Pedagogika. Toshkent. O'qituvchi, 2002. 105-b.

O'qituvchi o'quvchining tez yoki sekin nutq sur'ati materialni bilishi bilmaslik belgisi emasligini fahmlaydi. Vazminlik, bir ish turidan ikkinchisiga sekin o'tish sovuqqon mijozdagi o'quvchiga savolni tushunib olishi va unga javob tayyorlashi uchun ko'proq vaqt talab etiladi. Bunday o'quvchiga javob uchun qiziqqon mijozga nisbatan ko'proq vaqt kerak bo'ladi. O'qituvchi esa, sovuqqon o'quvchini vazminligini mutloqo boshqacha tushunadi. Turli mijozga (temperamentga) mansub bo'lgan o'quvchilarga nisbatan xato qilish umumiy baholash tizimining kamchiligi emas, balki, o'qituvchining shaxsiy (subyektiv) xatosi, aniqrog'i, o'quvchilarning tipologik xususiyatlarini bilmasligi natijasidir.

Maktab amaliyotida ko'pincha o'quvchilarni bir-biriga qiyoslashadi, birining yutug'ini ikkinchisiga o'rnak qilishadi. O'qituvchi yaxshi o'qiy olmagan o'quvchiga qarab: "Qaragin, Tohir qanday yaxshi o'qiydi!", - degan kinoyali so'zlar bilan uni izza qiladi. Bu o'quvchiga ruhiy jihatdan yomon ta'sir qiladi, oqibat u o'qishdan bezadi.

Bolalarni br-biri va umuman taqqoslash maqsadga muvofiqmi? Bunday taqqoslash past o'zlashtiruvchi o'quvchilarning o'qishga qiziqishini ko'chaytirishga yordam beradimi? Xuddi shu sohada psixologik tajriba o'tkazildi. O'quv yili davomida sinfda har bir o'quvchini o'zi bilan qiyoslab, o'qituvchi o'zlashtirish darajasi haqida uning o'zigagina aytdi. Boshqa sinfda esa bir o'quvchining yutuqlari, imkoniyatlari bir xil, lekin shaxsiy sifatleri bilan boshqa natijalarga erishgan, boshqa o'quvchining yutug'i esa muvaffaqiyatsizligi bilan qiyoslanadi. Uchinchi sinfda bolalar umuman taqqoslanmadi. O'quv yili oxirida o'quvchilari bir xil qobiliyatli, lekin o'qishga turlicha munosabati tufayli o'quv faoliyatida turli natijalarga erishgan bolalar sinfi eng yaxshi hisoblangan. Bu yerdagi taqqoslash bolaning o'sishini pasaytirmagan, aksincha, yaxshi natijalarga erishishi mumkinligini ko'rsatgan.

O'quvchi o'zini-o'zi bilan qiyoslagan sinfda ijobiy natijalar qo'lga kiritildi. O'zlashtirayotgan va o'zlashtirmaydigan o'quvchilar taqqoslangan sinfda mutloqo boshqacha manzarani ko'rish mumkin edi.

O'tkazilgan tadqiqot qo'yidagi xulosaga kelishga yordam beradi. Bolalar bilimni shunday taqqoslash kerakki, unda birovni yuqori ko'tarib, boshqalarni yerga

urmay, bolalarning eng yaxshi natijalarga erishuvini va o'z shaxsini takomillashtirishini qo'llab-quvvatlasin.

Umuman olganda, bolalarni bir-biri bilan taqqoslash, birini ikkinchisiga ibrat qilib ko'rsatish – pedagogik tomondan ham, axloq-odob tomondan ham mutloqo to'g'ri kelmaydi. Darhaqiqat, tarbiyaning insoniy ishi bolaning qanday bo'lsa shundayligicha qabul qilishi va ularning o'zini rivojlantirish va kamolga yetkazish uchun shart-sharoit yaratishni ko'zda tutadi.

O'qituvchi tomonidan o'quvchilar bilimini baholashda yo'l qo'yilgan xatolar faqat baho komponentlarining o'zgarishiga emas, balki butun o'quv bilish faoliyatining o'zgarishiga olib keladi, ular bu tizimga xos bo'lgan kamchiliklarni ko'chaytirib, uni kamsuqum va yoqimsiz qilib qo'yadi.

O'quvchi o'zini baholaydi. O'quvchilar bilimini tekshirish va baholash masalasi to'g'risidagi munozaralar, ularning takomillashtirishning yangi shakllarini izlash, aksariyat hollarda noto'g'ri ishda olib borilyapti. Albatta 10 ballik tizimini joriy etish yoki bahodan umuman voz kechish, tekshirishning to'g'ri shakllaridan, chunonchi, sinov, imtihon, testlarni qo'llash mumkin.

Lekin o'quvchi va uning bilish qobiliyati o'qituvchi bahosini obyekt bo'lib qolaveradi.

Maktab bahosining takomillashtirishning eng samarali yo'li o'quvchi bilimini baholash komponentining faol subyektiga aylantirishda. Zero pedagogning bahosi o'quvchining o'zini-o'zi baholashga o'rgatish lozim, yana yaxshisi, bahslashning bu ikki ko'rinishini uyg'unlashtirish muhimdir.

O'z-o'zining baholashni ta'minlovchi yo'llar qaysi? O'quvchilarning o'z-o'zini baholash ko'nikmasini paydo qilish uchun birinchi navbatda ularni o'z bilish faoliyatini baholashga jalb etish lozim.

O'zini-o'zi baholash qo'yidagi usullar bilan vujudga keladi:

1. Boshqalar bajargan ishni o'quvchi tomonidan, ya'ni o'quvchilarning o'zaro baholashi. Sinfdoshining ishi to'g'risida axborotning mavjudligi o'zini-o'zi baholash faoliyatiga ijobiy ta'sir qiladi.

2. Ishni bajargan o'quvchi o'ziga-o'zi baho qo'yadi. So'ng uning ishi o'qituvchi tomonidan baholanadi, ikkala baho qiyoslanib, birinchi bahoning obyektivlik darajasi aniqlanadi.

Yana boshqa usulni ham taklif etish mumkin. Og'zaki javobdan so'ng o'qituvchi javob berayotgan o'quvchidan o'ziga qanday baho qo'yish mumkinligini so'raydi, keyin sinfga murojat qilib, o'rtoqlari javobini ballar bo'yicha baholashni shakllantirish uchun o'quvchilarni baholash faoliyatiga jalb etish kifoya qilmaydi. Ya'ni, o'quvchilarni shunday mezonlar bilan qurollantirish kerakki, o'quvchilar ular bilan baholash va o'zini-o'zi baholashni amalga oshirsinlar.

O'quvchi o'zining (o'rtog'ining) bilimlarini baholashi uchun berilgan namuna etalon nisbatini (ulchashni) bilishi zarur. O'z harakati yoki ish natijalarini etalon bo'yicha taqqoslab, u o'z faoliyatini baholashga o'rganadi.

O'qituvchi bahosidan so'ng o'zini-o'zi baholashga o'tish o'quvchini o'qitishning faol sebyekti qilishda juda muhimdir. O'qitishda o'qituvchining asosiy vazifalaridan biri, bu o'quvchilar bilish faoliyatini boshqarish hisoblanadi. Undan kelib chiqib, u o'quv bilish faoliyatini rejalashtiradi, nazoratni boshqarish va baholashni amalga oshiradi. O'quvchi muayyan mezonlar asosida o'zining bilish faoliyatini baholashi zarur va o'quvchi qanchalik tez-tez o'zini baholash bilan shug'ullansa, u shunchalik ishonch bilan o'qitish subyekti bo'lib boradi.

O'quv motivlarini shakllantiruvchi eksperiment uch bosqichda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq:

1-bosqich. Motivatsiyani uyg'otish.

2-bosqich. Vujudga kelgan motivatsiyani kuchaytirish va mustahkamlash.

3-bosqich. Yakunlovchi bosqich.

O'quv faoliyatidan har bir o'quvchi ijobiy tusga ega shaxsiy tajriba bilan chiqishi kerak, ya'ni dars yakunidagi ijobiy ustanovka o'quv faoliyati rivojiga imkon qoldirmog'i shart.

O'quvchilarning o'quv motivlarini tarkib topishiga yordam beradigan korreksion tadbirlar qo'yidagi ishlarda olib borilishi lozim:

O'quvchining maktabgacha bo'lgan davrdan kichik maktab yoshi davriga o'tish paytida o'quv faoliyati samarasini belgilovchi asosiy psixik hosilalarni nihoyashiga yetkazish;

- kichik maktab yoshi davrida asosiy hisoblangan o'quv faoliyatini muvaffaqiyatli o'zlashtirilishini ta'minlaydigan psixologik salohiyatni yuzaga keltirish.

Xulosa

Yoshlarga talim-tarbiya berish masalalarida yangicha yondashish davr talabi bo'lib kelmoqda.

Respublikamizda uzluksiz ta'limini joriy etishdan asosiy ko'zlangan maqsad – yosh avlodda yuqori kasbiy madaniyat, ijodiy va ijtimoiy-siyosiy faollik, erkin fikr yuritish kabi qobiliyatlarni shakllantirishdan iborat. Bunda avvalo tahsil oluvchilarning faolligini oshirish talab qilinadi

O'qituvchi o'z faoliyati davomida, yani ayrim hollarda baho ballari ularning so'z shakli bilan "a'lo", "yaxshi" deb almashtiradi. Pedagogik baholash umuman bolalarning shaxsini emas, balki ko'rsatgan sifatlarini baholashni nazarda tutadi.

Pedagogik baholashga bunday yondoshishga asoslangan va undan o'z ishida oqilono foydalangan holda pedagog o'z o'quvchilarining qiymatli munosabatlarini shakllantiradi va to'g'rilaydi. Pedagogik baholash vositasida o'qituvchi o'z tarbiyalanuvchilarida axloqiy va ma'naviy-etik qarashlarni tarkib toptiradi.

Pedagogik baho: obrazlarni qiymatli munosabatlar darajasida muhitga olib chiqish; bu munosabatlarni o'zlashtirishda bola faoliyatini rag'batlantirish; xato qilish ehtimoli sezilsa, uni oldindan to'g'rilashdan iborat. Har bir shaxs takrorlanmasdir va har bir shaxsga uning o'sishi uchun pedagogik baholashning ahamiyatini hisobga olgan holda ehtiyotkorona munosabat darkordir. Shu munosabat bilan o'qituvchi darsda va tarbiyaviy tadbirlarda foydalanishi mumkin bo'lgan bir nechta texnologik qoidalari mavjud;

1.O'quvchilarning ijtimoiy qiymatli yutuqlarini taqdirlash. Ushbu usulni qo'llaganda, o'qituvchi bolaga yorqin hissiy tuyg'ularni boshdan kechirishga yordam beradi, bu o'qituvchining aktiv faoliyatini o'stirishga xizmat qiladi. Shuningdek, bolaning o'qituvchi bilan o'zaro munosabatlarini chuqurlashtirishga yordam beradi, bu o'quvchiga ta'sir etishda qo'shimcha imkoniyatlarni ochadi. Har bir bolaning shaxsiy va umuminsoniy yutuqlari ruyobga chiqishi zarur.

2. Xulq-atvor belgilari ko'rinmaganda baholash muddatini cho'zish. Baholash muddatini cho'zish o'quvchining o'quv-tarbiyaviy jarayoniga yoki boshqa ishlariga salbiy ta'sir ko'rsatgan, uning qalbida uzoq vaqt qolishi mumkin bo'lgan

umidsizlikning oldini olishga yordam beradi. Bu muddat pedagog tomonidan belgilanadi va vujudga kelgan muammoga qarab turlicha bo'lishi mumkin. Masalan: Birinchi sinf o'quvchisi harf va bo'g'inlarni xunuk va tartibsiz yozadi. O'qituvchi bahoni qo'ymay turib, o'quvchiga shunday deydi: "Yaxshi baho olish uchun vazifani namunaga qarab to'g'ri, toza tartib bilan yozish kerak". Masalani hal etish uchun ketadigan vaqt albatta o'quvchiga ma'lim qilinadi, chunki u, birinchidan, psixologik tomonidan ruhiy zo'riqish holatida bo'lishga o'rganmagan bo'ladi, ikkinchidan esa, bunday masalani yechishni pysalga solish bajarayotgan ishni mustaqil anglab yetish samaradorligini pasaytiradi.

Ta'lim beruvchining to'g'ri va adolatli asoslashi, garchi, salbiy harakterda bo'lsa ham, talabani qanoatlantiradi. Ta'lim beruvchi bilimni doim nazorat etib ball bilan baholar ekan, talabaning ishiga bo'lgan munosabatini aytib o'tadi. Erishgan yutuqlari uchun rag'batlantirsa, kamchiligi uchun koyiydi. Uni bartaraf qilish mumkinligini ham ijodiy tayyorgarlik paytida asosiy e'tiborini nimalarga qaratish kerakligini ko'rsatadi. Bunday asoslash talaba yutuqlarning aniq bahosi bo'libgina qolmay, balki uning bundan keyingi o'qishdagi vazifalarini bajarishga yordam beradi. Bu, talabada umid uyg'otadi. O'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi va ta'lim beruvchi – ustozga nisbatan ham e'tiqodni yanada kuchaytiradi. Eng asosiysi ular kelajakda o'zfaoliyatlariga tanqidiy ko'z bilan qaraydigan jiddiy shaxslar bo'lib yetishadilar.

Demak, bilimni to'g'ri va haqqoniy baholash ta'lim beruvchining pedagogik faoliyatiga ham katta ta'sir ko'rsatadi va qo'yilgan bahoga javobgarligini oshiradi. Baho o'quvchiga ta'sir etib, uning ijodiy va salbiy kechinmalarini jumbushga keltiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Bu kechinmalar faqat bahoning qandayligiga bog'liq bo'lmay, balki uning o'quvchi ongiga qanday yetkazishiga ham bog'liqdir. Faqat yuqorida aytib o'tilgan shartlarga rioya qilib, hamma tomon hisobga olingan holda, qo'yilgan ob'ektiv baho talabalarda axloqiy – irodaviy xususiyatlarni tarkib toptirishga yordam beradi.

TAVSIYALAR

Mazkur bitiruv ishimizning yakunlari bo'yicha o'quvchilarning ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanayotgan o'qituvchilarga, ota onalarga, maktab psixologlariga, qo'yidagicha tavsiyalarni berishni lozim deb bildik:

1.O'quvchining bilimga bo'lgan motivlarining tarkib topishini asosiy sharti o'qish ishtiyoqi, muvaffaqiyatga erishish bolaning o'qituvchiga bo'lgan ijobiy munosabati bilan belgilangani uchun o'quv jarayonini to'g'ri tashkil etish zarurdir.

2.Oquvchining maktabgacha bo'lgan davrdan kichik maktab yoshi davriga o'tish paytida o'quv faoliyati samarasini belgilovchi asosiy psixik hosilalarni nihoyasiga yetkazish uchun ham psixologik o'yinlardan foydalanish kerak.

3.O'quv faoliyatidan har bir o'quvchi ijobiy shaxsiy tajriba bilan chiqishi uchun dars yakunidagi ijobiy ustanovka o'quv faoliyati rivojiga imkon qoldirsin.

Aksariyat hollarda o'quvchilarning o'quv motivlarini yaxshi shakllanmaganligi ularning bilimsizligi yoki o'quvsizligi sababli emas, balki psixik jarayonlarining to'liq shakllanmaganligi bilan belgilanishi mumkin. Psixologik o'yinlar orqali psixik jarayonlarni tukis shakllantirish bilan o'quv motivlarini kuchaytirsan bo'ladi.

4.O'quvchilarni baholashda ularning bahoga intilish motivlaridan me'yorda foydalanishlari zarur, aks holda o'quvchilarda tashqi motivatsiya kuchayib, bilimga intilish motivlari o'z ustuvorligini yuqotishi mumkin.

5.Dars jarayonida berilayotgan nazariy bilimlarni ko'proq amaliyot bilan bog'lab olib borishga harakat qilish kerak.

ILOVALAR

Birinchi metodika

«Bilim olishga intilish» metodikasi

(N.A.Kurdyukovoy, ye.P.Ilin)

Ko'rsatma.

Bir qator savollarga juft javoblar berilgan. Ikkita javobdan birini tanlash kerak. «a» yoki «b» harfi siz tanlagan javob hisoblanadi.

Savollar.

1.Yomon baho olib uyga kelgandan so'ng;

- a) darrov darsga o'tirasani va yomon javob bergan mavzuni qaytarasan.
- b) javob berilmagan predmet bir kundan so'ng bo'lishini o'ylab, televizor ko'rishga yoki kompyuter o'ynashga o'tirasan.

2.Yaxshi baho olgandan so'ng;

- a) keyingi darsga tayyorlanishni boshlaysan.
- b) sendan so'ramasligini bilganing uchun sen yaxshi tayyorgarlik ko'rmaysan.

3.O'zingni bahoingdan emas, bergan javobingdan qoniqmagan payting bo'ladimi?

- a) ha
- b) yo'q

4.Seningcha o'qishni ahamiyati nimadan iborat?

- a) yangilikni bilish
- b) malol keladigan fanlarni o'qish

5.Darsga qanday tayyorgarligik ko'rishing baholaringga ta'sir qiladimi?

- a) ha
- b) yo'q

6.Yomon baho olganingdan so'ng qaerda xato qildim deb, o'ylab qolasanmi?

- a) ha
- b) yo'q

7.O'qituvchilarni qo'ygan bahosi senda uy vazifasini bajarishga xoxish o'yg'otadimi?

- a) ha
- b) yo'q

8) Ta'tildan so'ng o'qishga oson kirisha olasanmi?

- a) ha
- b) yo'q

9.O'ituvchining kasalligi sababli dars bo'lmayotganiga achinasanmi?

- a) ha
- b) yo'q

10.Sinfdan - sinfga o'tganingda, yangi kitoblar olganingda, bu kitoblar mazmuni bilan qiziqasanmi?

- a) ha
- b) yo'q

11.Seningcha- o'qish yoki kasal bo'lish qaysi biri yaxshi deb hisoblaysan.

- a) o'qish
- b) kasal bo'lish

12.Sen uchun qaysi biri zarur? Bahomi yoki bilim olishmi?

- a) baho
- b) bilim

Xulosa

1,2,3,4,5, 6, 8,9,10, 11 savollarning «a» varianti uchun 1 balldan savollarning «b» varianti uchun ham 1 balldan beriladi. Har bir javob kalitiga qarab 1 ball beriladi. To'plangan ballar qanchalik yuqori bo'lsa, bilim olishga intilish motivi ham shunchalik yuqori bo'ladi.

Ikkinchi metodika
«Bilim olishga intilish» metodikasi
(N.A.Kurdyukovoy, ye.P.Ilin)

Ko‘rsatma.

Bir kancha savollar beriladi. Ularga javob bering. Berilgan savollarga «+» (ha) yoki « — » (yo‘q) belgisini qo‘ying.

№ Savollar

Ha Yo‘q

1. Birinchi marta «2» baho olganingni eslay olasanmi?
2. Seni baholaring sinfdoshlaring baholaridan sal pastligi seni bezovta qiladimi?
3. Yozma ishdan oldin sen hayajonlanasanmi?
4. Yomon baho olganing to‘g‘risida senga e‘lon qilishganida qizarib ketasanmi?
5. Agar hafta oxiriga kelib yomon baho olsang, bu sening—dam olish kunlaringa ta’sir qiladimi?
6. Agar seni anchadan buyon javob berishga chaqirishmasa, bu seni xavotirga qo‘yadimi? (soladimi)
7. Olgan baholaringa sinfdoshlaringni munosabati seni qiziqtiradimi?
8. Yaxshi baho olganingdan so‘ng, keyingi darsga yaxshilab tayyorgarlik ko‘rasanmi?
- Garchi sendan so‘rashmasligini bilsang ham.
9. Seni kelgusi darsy uzasidan javob xavotirga soladimi?
10. Agar baho qo‘yish usuli bo‘lmasa, senga o‘qish qiziq bo‘larmidi?
11. Agar javobga baho qo‘ymasliklarini bilsang, sen javob bergan bo‘larmiding?
12. Baho olganingdan so‘ng, darslarda faollik bilan ishtirok etasanmi?

Natijalarni qayta ishlash:

1,2,3,4,5,6,7,8, 9 gacha bo‘lgan savollarga «ha» deb javob berilgan bo‘lsa, gacha bo‘lgan savollarga «yo‘q» deb javob berilgan bo‘lsa 1 balldan hisoblanadi. Umumiy ballar hisob-kitob qilinadi.

Xulosa:

Qanchalik ballar yuqori bo‘lsa, u holda o‘quvchida bahoga intilish motivatsiyasi shunchalik yuqori bo‘ladi.

Baholashning afzalliklari bo'yicha 15 ta imkoniyatlardan foydalanishga ro'xsat etildi.

Reyting tizimi :

Baholash imkoniyatlari

Ilova 1

- 1.O'tgan mavzuni qanchalik darajada o'zlashtirdi.
2. YAngi mavzu ustida ishlay olishi. O'qituvchi tushuntirgan yangi mavzuni qanchalik darajada o'zlashtirdi.
3. Konspekt daftarlarining mavjudligi, doimiy yozib borilishi va mazmuni.
4. O'quvchining o'tilgan mavzular yuzasidan qo'shimcha savollarga javobi.
5. O'quvchining qanchalik darajada o'quv anjomlari bilan qurollanganlik darajasi.
6. Mustaqil ishlardagi ishtiroki.
7. O'quvchining tashqi qiyofasi .
8. O'quvchining darslardagi davomati.
9. O'quvchining og'zaki nutqi.
- 10.O'quvchining xusnixati, savodxonligi va daftarlarining ozodaligi.
- 11.O'quvchining tartib-intizomi.
- 12.O'quvchining darslardagi kechikishi.
- 13.O'quvchining maktabdan tashqari ishlarda ishtiroki.
- 14.O'quvchining sinfdosh, do'stlari bilan munosabati.
- 15.O'quvchining o'tilgan mavzu yuzasidan savollar, test kartochkalari va referatlar tayyorlab kelishi.

- (mahalliy sharoitga, muhitga qarab boshqa maktablarda imkoniyatlarni o'zgartirib borish mumkin)

Tayanch ibora

- 1.Baho** - baholashning ball shaklida ko'rsatilgan son jihatdan o'lchashiga aytiladi.
- 2.Baholash** - bilim, ko'nikma va malakalarni o'quv dasturida ko'rsatilgan etalon (ko'rsatkich, qolip, o'lchagich)lar bilan solishtirishni aytamiz.
- 3.Bilim** - bu o'quvchilar ongida muayyan tartibda mustahkamlangan, ularning shaxsiy mulkini tashkil etadigan va bundan ular zaruriyatga ko'ra foydalana oladigan faktlar, ma'lumotlar, ilmiy nazariyalar, qonunlar va tushunchalardir.
- 4.Bilish** – ma'naviy-ruhiy hodisa, insonning olamni anglash qobiliyati, saralangan, tartibga solingan, muayyan usul (metod) yordamida olingan, ma'lum mezonlarga (me'yorlarga) muvofiq tartibga solingan, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan, odamlar va butun jamiyat tomonidan aynan bilish sifatida tan olinadigan axborot.
- 5.Idrok** (arab. Aql vositasida bilish, qabul qilish) – aql asosida murakkab bilish jarayoni, ruhiy intellectual qobiliyat.
- 6.Intellekt** (lot. Intellectus – aql, idrok, zehn) – keng ma'noda: kishining voqea hodisa mohiyatini to'laligicha bilishiga asoslangan va u orqali namoyon bo'ladigan faoliyati; tor ma'noda: insonning tafakkur, fikr yuritish salohiyati.
- 7.Joriy nazorat** – talabaning fan mavzulari bo'yicha bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash hamda baholash usuli.
- 8.Oraliq nazorat** – semestr davomida o'quv dasturining tegishli (fanning bir necha mavzularini ichiga olgan) bo'limi tugullangandan keyin talabaning bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Oraliq nazoratining soni (bir semestrda ikki martadan ko'p o'tkazilmasligi lozim) va shakli (yozma, og'zaki, test va hokazo) o'quv faniga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi.
- 9.Ochiq test** – o'quvchiga o'z xoxishiga ko'ra javob berish imkoniyatini yaratadi. Ochiq testlar, odatda, bitta asosiy so'z (yoki so'zlar) tushirib qoldirilgan jumladir.
- 10.Natijalarni o'zlashtirish** – bu olingan natijalarni amaliy o'zlashtirishga tayyorlash jarayonidan iboratdir, ya'ni iste'mol uchun tayyorlash. Bunda ta'lim

beruvchi ishtiroki muhim rol o'ynaydi, chunki kerak bo'lganda ayrim zaruriy tuzatishlar kiritish har kimning ham qo'lidan kelavermaydi.

11.Rag'batlantirish va jazolash – tarbiyaning eng an'anaviy usuli bo'lib, bolalar xulq-atvoriga tuzatish kiritishni, foydali hatti-harakatlarini qo'shimcha rag'batlantirishni va tarbiyalanuvchilarning nomaqbul hatti-harakatlarini to'xtatishni ta'minlaydi.

12.Reyting – inglizcha so'z bo'lib, baholash, individual koeffitsiyent ma'nolarini anglatadi. O'quvchilar bilimi sifatini baholashning o'quv jarayoni va ta'lim natijalarini baholashga bir xil yagona yondashuvni ta'minlaydigan ko'rsatma va qoidalar majmuidir.

13.Ta'lim – inson bilish faoliyatining eng murakkab turlaridan biridir. Ta'lim o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini egallash bo'yicha o'quv bilish faoliyatini tashkil qilish, ularning tafakkur va qobiliyatlarini o'stirish, dunyoqarash, ma'naviy sifatlari, axloqiy, estetik madaniyatini shakllantiradi.

14.Ta'lim natijalarini nazorat qilish vositalari – o'rganilayotgan fan (mavzu) bo'yicha shakllantirilgan ma'lumotlar bazasi (bilimlar banki)dan ta'lim beruvchi tomonidan tayyorlangan (tuzilgan) topshiriqlar, savollar, test – savollari va shu kabilar va ulardan foydalanish vositalari. Bunday jarayonlarda natijalarni o'zlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

15.Test – biror bir faoliyatni bajarish uchun ma'lum darajadagi bilimni egallashga qaratilgan topshiriqdir.

16.Tekshirish – nazoratning tarkibiy qismi bo'lib, uning asosiy didaktik vazifasi ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar o'rtasida aloqani ta'minlash, ta'lim beruvchi tomonidan o'quv materialini o'zlashtirish haqida ob'ektiv axborot olinishi hamda bilimlardagi kamchilik va nuqsonlarni o'z vaqtida aniqlashdir.

17.Trening (trening) - inglizcha so'z bo'lib, «amaliy ta'lim», «maxsus mashqlar rejimi» degan ma'noni anglatadi. Oqitish faoliyatidagi motivlar

18.Yakuniy nazorat – semestr yakunida muayyan fan bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni talabalar tomonidan o'zlashtirish darajasini baholash usuli. Yakuniy nazorat asosan tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan “Yozma ish”

(tibbiy oliy ta'lim muassasalari uchun "YOzma ish" yoki OTKS (ob'ektiv tizimlashtirilgan klinik sinov) shaklida o'tkaziladi.

19.Yopiq test – test sharti savol yoki vazifa, topshiriq va qisqa javoblardan iborat tuzilib, ko'pincha javoblardan bittasi to'g'ri qolganlari to'g'ri javobga o'xshashroq bo'ladi.

20.O'quv tarbiyaviy jarayon - boshqariladigan va rostlanadigan jarayon bo'lib, o'qituvchi, ustoz o'quvchilardagi bilim, malaka va ko'nikmalarni son va sifat jihatdan haqqoniy baholash o'quv tarbiyaviy jarayonda olingan natijalarga qarab o'zgartirishlar kiritib borish bilan birga o'zining faoliyatiga ham tavsif beradi.

21.O'qish – o'quvchini o'z bilim, ko'nikma, malaka, va qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan xususiy harakatlari.

22.O'yin - faqat bolalarga xos olamni anglash va o'z malakalarini takomillashtirish usuli.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Toshkent. "O'zbekiston" nashriyot-manbaa ijodiy uyi. 2010. 39-b.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun G'G' Oliy ta'lim: Me'yoriy – huquqiy va uslubiy hujjatlar to'plami. – Toshkent: Istiqlol, 2004. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" to'g'risidagi Qonun
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 13-maydagi "O'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limini tashkil etish chora tadbirlari to'g'risida"gi 204-sonli Qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 16-oktyabrdagi "O'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limi Davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 200-sonli Qarori.
5. Karimov.I.A"Yuksak bilimli intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish modernizatsiya qilishning eng muhim sharti" mavzusidagi xalqaro konferensiyaning ochilish marosimidagi nutqi. 17.02.2012.
6. Karimov.I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. Toshkent: O'zbekiston, 2011. 439-b.
7. Karimov.I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: O'zbekiston, 2008.173-b.
8. Karimov.I.A. Barkamol avlod kelajagimiz tayanchi.Toshkent. Ma'naviyat. 2010. 192-b
9. Karimov.I.A. Tinchlik va xafsizligimiz o'z kuch qudratimizga, hamjihatligimiz va qat'iy irodamizga bog'liq. Asarlar, 12-jild. Toshkenn. O'zbekiston. 2004. 197-b.
- 10.Karimov.I.A. Karimov.I.A. Inson uning huquq va erkinliklari oily qadriyat. 14-jild. Toshkent: O'zbekiston. 2006. 286-b.
- 11.Karimov.I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. Toshkent: O'zbekiston, 1995. 266-b.

- 12.Karimov.I.A. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi.Asarlar. 5-jild. Toshkenn: O‘zbekiston. 1997. 178-b.
- 13.Aliyev A. Pedagogik madaniyat: metod va mahorat qirralari. Xalq ta’limi, 1992 yil 4 son. 205-b.
- 14.Do‘stmuhammedova Sh.A. o‘quvchilarni o‘quv faoliyatlarini boshqarish psixologiyasi. Toshkent, 2000. 354-b.
- 15.Ibragimov X.I., Sh. Abdullayeva. Pedagogika nazariyasi. Toshkent, 2000. 240-b.
- 16.Ibragimov X.I., Yo‘ldoshev U.A., X. Bobomirzayev. Pedagogik psixologiya. Toshkent, 2001. 328-b.
- 17.Madaliyev A. ta’lim-tarbiya uyg’unligi – komil insonni shakllantirish garovi. Toshkent. 2011. 98-b.
- 18.Mavlanova R., To‘rayeva O. Pedagogika. Toshkent. O‘qituvchi, 2002. 510-b.
- 19.Ochilov M, N.Ochilova. Oliy maktab pedagogikasi. Toshkent, 2008. 223-b.
- 20.Omonov H.T.,Xo‘jayev H.X.,Madyarova S.A., Eshchonov Y.U. Pedagogik texnologiyalar va mahorat. Toshkent iqtisod – moliya. 2009. 205-b.
- 21.Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. Toshkent, 2004. 178-b.
- 22.Qosimova Z.H. pedagogik mahorat asoslari. Toshkent O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “Fan nashriyoti” 2009. 95-b.
- 23.Sariboyev H va boshqalar. Pedagogika nazariyasi. Ma’ruzalar matni. Toshkent, 2004. 260-b.
- 24.Saidahmedov N. Pedagogik mahorat pedagogik texnologiya Toshkent, 2000. 156-b.
- 25.Sodiqov B. Pedagogik mahorat va psixologiya. Toshkent, 1996. 276-b.
- 26.Tursunov I.Y., Nishonaliyev U.N. Pedagogika tarixi. Toshkent. 1997. 231-b.
- 27.Ziyomuhammedov B. Pedagogika. Toshkent, 2006. 109-b.
- 28.Ziyomuhammedov B. Pedagogik mahorat asoslari. Toshkent, 2009, 183-b.
- 29.Ziyomuhammedov B. Islomov F. Pedagogik texnologiyalar. Toshkent, 2011, 439-b.

30. Ziyomammedov B. Tojiyev M. milliy pedagogika texnologiyani ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbig'i va uni yoshlar intellectual salohiyatini yuksaltirishdagi o'rni. Toshkent. 2010. 263-b.
31. G'aybullaev N.R., Yodgorov R., Mamatqulova R. Pedagogika. – Toshkent: 2005. 176-b.
32. Hasanboev J., Sariboev H., Niyozov G., Hasanboeva O., Usmonboeva M. Pedagogika. – Toshkent: Fan, 2006. 289-b.

Internet saytlari.

1. WWW. Ziyonet.uz
2. WWW. Uznet.uz. WWW. Parvona.uz
4. WWW. ekspert.psychology.ru
5. WWW. psy.piter.com
6. WWW. Farzand.uz
7. WWW. Fikr.uz
8. WWW. Doktor.uz
9. WWW. inter – pedagogika.ru
10. WWW. Shool.edu.ru.

Mundarija

1. Kirish	3 – 8 betlar.
2.I bob. O’quvchilarni bilim, ko’nikma va malakalarini sinovdan o’tkazish va baholash mezonlari.	
3.Ta’lim tizimida o’quvchilarni bilimini o’zlashtirishini baholash jarayoni.....	9 – 20 betlar.
4.Reyting tizimi va uning samaradorligi.	21 – 45 betlar.
5.II bob. . Kichik maktab yoshida bahoga munosabat shakllanishining psixologik xususiyatlarini eksperimental tadqiq etish.	
6. Tadqiqot natijalari tahlili.....	46– 51 betlar.
7. Kichik maktab yoshida bilim olish va bahoga intilish motivlarining o‘zaro munosabati.....	52– 61 betlar.
2. Xulosa.....	62 – 64 betlar.
3. Ilovalar.....	65 – 68 betlar.
4. Tayanch ibora.....	69 - 71 betlar.
5. Adabiyotlar ro‘yxati.....	72–74 betlar.